O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K:327:94(584.4+100)"17-18"

***Sirojiddin BAROTOV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*
*E-mail:sirojiddinbaratov1985@gmail.com*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti O.M.Normatov taqrizi ostida*

# ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA HUNARMANDCHILIKNING AHVOLI

Annotatsiya
Maqolada XVII asrda va XVIII asrning I yarmida Buxoro xonligi aholisi turmush-tarzining ajralmas qismi bo‘lgan hunarmandchilik turlari, ularning kishilar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, shuningdek, siyosiy parokandalik va o‘zaro ichki urushlar avj olgan davrlarda ham bu soha tarmoqlarining ahvoli tahlil qilingan.
**Kalit so‘zlar:** usta, oqsoqol, xalifa, shogird, to‘quvchilik, temirchilik, degrezlik, qurolsozlik, qozonchi, durodgorlik, zargarlik, kulolchilik, chopondo‘zlik, do‘ppido‘zlik, baqqol, qassob, cho‘yanchi, pozagar, chitpaz, bo‘yoqchilik, nonfurush, kasaba, olacha, bo‘z, chit, duxoba, karbas, obdasta, shamdon, qorachiroq, choy idish, takchuyon, xanjar, qilich, zirh kiyimlar, qalqon, dubulg‘a.

## THE STATE OF CRAFTS IN THE BUKHARA KHANATE DURING THE ASHTARKHANID PERIOD

Annotation
The article analyzes the types of crafts that were an integral part of the lifestyle of the inhabitants of the Bukhara Khanate in the 17th and first half of the 18th centuries, their role and significance in people’s lives, as well as the state of these crafts. industry even during periods of political chaos and internecine wars.
**Key words:** master, elder, caliph, apprentice, weaving, blacksmith, carpenter, gunsmith, potter, carpentry, jewelry, pottery, tailor, hat maker, grocer, butcher, ironworker, potter, chitpaz, dyer, bakery, shop, olacha, boz).

## СОСТОЯНИЕ РЕМЕСЛА В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ В ПЕРИОД АШТАРХАНИДОВ

Аннотация
В статье анализируются виды ремесел, которые были неотъемлемой частью образа жизни жителей Бухарского ханства в XVII и первой половине XVIII века, их роль и значение в жизни людей, а также состояние этих ремесел. промышленности даже в период политического хаоса и междоусобных войн.
**Ключевые слова:** мастер, старейшина, халиф, подмастерье, ткачество, кузнец, плотник, оружейник, гончар, столярное дело, ювелирное дело, гончарное дело, портной, шляпник, бакалейщик, мясник, слесарь, гончар, читпаз, красильщик, пекарня, лавка, олача, боз).

Bizga ma’lumki, Buxoro xonligida hukm surgan Ashtarxoniylar davrida siyosiy vaziyat har doim ham barqaror bo‘lmagan. Dashti Qipchoq qo‘chmanchi qabilalarining (asosan qozoq xonlari va qalmoqlar) hujumlari, qo‘shni davlatlarning Movaraunnahrga tinimsiz tajovuzlari natijasida Samarqand, Buxoro, Chorjo‘y va boshqa ko‘plab shahar va qishloqlar vayrona aylanadi. Buning ustiga Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilayotgan Boburiy podshohlarning va Eron hukmdorlarining Buxoro xonligi ichki ishlariga aralashuvi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi”[3]. Shuningdek, sulolaviy nizolar mamlakat iqtisodiyotiga va aholi turmush-tarziga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi. Ayrim shaharlar, butun bir viloyatlar shunday vayron qilindiki, ular uzoq vaqt davomida qayta tiklana olmadi. Lekin shunday bo‘lsada, aholi o‘z hunar-mahoratlarini yo‘qotmadi”[12]. Xo‘jalikning turli sohalari kabi hunarmandchilik tarmoqlari ham o‘ziga xos tarzda davom ettirildi. Hunarmandchilik asosan shaharlar va aholisi ko‘p yirik qishloqlarda rivojlangan. Hunarmandchilikning ham avvaldan mavjud bo‘lgan an’anaviy yo‘nalishlari: to‘quvchilik, temirchilik, qurolsozlik, durodgorlik, zargarlik, kulolchilik kabi turlari mavjud bo‘lgan[1]. O‘zi ham shaxsan to‘quvchilik bilan shug‘ullangan XVII-XVIII asrlar shoiri Sayido Nasafiy hunarmandlar faoliyatiga bag‘ishlangan «Shaxroshub» asarida Buxoro va Samarqandda mavjud bo‘lgan 212 xil hunarmandchilik turlari haqida ma’lumot berib o‘tgan[8]. Oldingi davrlarda bo‘lgani kabi o‘rganilayotgan davrda ham Samarqand shahri yirik hunarmandchilik markazi edi. XVII asrga kelib shaharda hunarmandchilikning ayrim turlari tobora ixtisoslashib boraveradi. Ayniqsa, bu jarayonning borishi to‘qimachilikda yaqqol namoyan bo‘ldi. Turli xildagi ip va shoyi gazlamalar, belbog‘lar, dasturxonlar, darpardalar va boshqa shu kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish rivojlandi. Samarqand to‘quvchi hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘zining yuqori sifati bilan ajralib turar va xaridorgir edi. Turli rangdagi gul solingan ipak gazmollar, ip va shoyi olacha, baxmal, zarli va kumushli yo‘l-yo‘l parchalar va hokazalar ishlab chiqarilardi. Shahar hududida alohida zardo‘zlar mahallasi ham bo‘lgan. Bu davrda hunarmandchilik turlari asosan shaharlarda taraqqiy etgan bo‘lsada, o‘zaro iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi va natural xo‘jalikning rivojlanishi tufayli eng zarur hunarmandchilik mahsulotlarini yetishtirish bilan yirik qishloqlar aholisi ham shug‘ullana boshlaydi. Mamlakat aholisining kerakli hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabi asosan mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar hisobiga qondirilardi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘tmishda o‘troq aholi nafaqat qo‘shni ko‘chmanchi qabilalar mahsulotlarini iste’mol qiluvchilar, balki ularni kerakli hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta’minlab ham turganlar. Shuning uchun mahalliy hunarmandlar teri, jun, paxta, ipak, yog‘och va metalldan har xil buyumlar: kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or anjomlari va qurol-aslahalar ishlab chiqarganlar va ularni sotganlar, ayr boshlaganlar. O‘rta asrlarda hunarmandchilik an’analarining o‘ziga xos xususiyati hunarmandlarning o‘z uyushgan ijtimoiy tashkilotlariga ega ekanligida edi. Bunday tashkilotlar o‘ziga

xos jamoatchilik nazorati vazifasini bajargan. Ularda belgilangan nizom asosida faoliyat yuritilgan. Aslida bunga o‘xshash hunarmandchilik uyushmalari ishlab chiqarish xarakteri, hunarmandchilik texnikasi va o‘z hamkasblari manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Bu davrda hunarmandlar orasida ustalar, oqsoqollar, xalifalar va shogirdlar kabi ijtimoiy tabaqalashuv ko‘zga tashlanadi. O‘ziga to‘q ustalar o‘z ustaxonasini tashkil etishgan, o‘rtahollari esa yirik hunarmandlarga tegishli ustaxonalarda faoliyat yuritishgan. Xonlikda hunarmandchilikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu- hunarmandlar uyushmalarining mavjudligi edi. Bunday uyushmalar o‘ziga xos ijtimoiy vazifani o‘tagan. Mazkur uyushmalar jamoatchilik an’analariga asoslanib maxsus tashkilotlarga birikkan bo‘lib, hunarmandchilik sohalarining texnikasi va hunarmandlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Hunarmandchilik uyushmalari nafaqat usta-hunarmandlar manfaatlarini himoya qilgan balki, tashqi raqobatchilikka qarshi kurashgan. Bunday uyushmalar hunarmandlar orasida “kasaba” deb nomlangan[11]. Uyushma rahbari hunarmandlar faoliyati: ustoz-shogird munosabatlari va ular ishlab chiqargan mahsulotlar sifatini qattiq nazorat qilib borgan. Markaziy Osiyo mintaqasi hunarmandlari orasida bunga o‘xshagan uyushmalar hatto X asrdanoq faoliyat yuritgan[7]. Hunarmandlar tashkilotlarida ishlab chiqarish shakllari hamda a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar qat’iy belgilab qo‘yilgan[6]. Bu davr hunarmandchiligining yana bir o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, hunarmandchilik sohalari bevosita uy-ro‘zg‘or xo‘jaligi bilan bog‘liq edi. Hunarmandlar asosiy faoliyatidan tashqari (asosan qishloq sharoitida) dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishgan. Ular o‘z mahsulotlarini yashash joyiga yaqin bo‘lgan bozorlarga chiqarib sotishgan yoki bozorga chiqarmasdan o‘z xonadaonlarida natura shaklida haq olganlar(don va chorva mollariga ayr boshlagan). XVII asrda ham to‘qimachilik va u bilan bog‘liq hunarmandchilik turlari taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Bu tashqi savdoda ham o‘z aksini topgan. Movaraunnahr shaharlarida ishlab chiqarilgan katta miqdordagi turli xil matolar har yili Moskva va Sibir shaharlariga yetkazib turilgan va bu aloqalar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan[7]. To‘qimachilik mahsulotlari Buxoro xonligining asosiy eksport tovarlari edi. Hunarmandchilikning to‘qimachilik turi o‘rta asrlarda bo‘lgani kabi bu davrda ham ko‘p tarmoqli bo‘lgan. Ip yigirish, gilam to‘qish, gazlamalar tayyorlash va kiyimlar tikish rivojlanishda davom etadi. Xonlikning Samarqand va Buxoro kabi shaharlari aholisining aksariyat qismi mato ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kichik ishlab chiqruvchilar bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda yetishtirilgan paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar XVI asrdan boshlab rus bozorlari, Qozog‘iston va Sibirga ham yetkazilib turilgan. Paxtadan tayyorlangan kiyimlar va matolar Samarqanddan ikki yoki to‘rt farsax shimoli-g‘arbda joylashgan Vador shahri(yoki qishlog‘ida)da somoniylar davridan boshlab mashhur bo‘lgan. Bu mato faqat Vador qishlog‘idagina emas Miyonqol va Dabusiyada ham ishlab chqarilganligini akademik V.V. Bartold ta’kidlaydi[4]. Bu mato ishlab chiqarilgan joy nomi bilan “Vadoriy” deb atalgan va shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Bu mato ishlab chiqarilgan joy nomi bilan “Vadoriy” deb atalgan va shu nom bilan mashhur bo‘lgan. Xonlik hududida va undan tashqarida ham mashhur bo‘lgan yana bir mato “Zandanachi” edi. Bu mato o‘rta asrlardan boshlab buxoro hududlarida tayyorlangan. Hukmdorlar, zodagonlar va amaldorlar ushbu matodan tayyorlangan qimmatbaho liboslarni kiyishgan. Xonlik shaharlarida turli rangdagi “Zandanachi”ga o‘xshash turli xil paxtadan tayyorlangan bosma naqshli matolar, dasturxon, parda, kamar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Shuningdek, mamlakatda kam miqdorda ishlab chiqariladigan yuqori sifati va yorqin ranglari bilan ajralib turadigan ipak va yarim ipak matolar ham tayyorlangan[7]. XVII asrda bu xildagi ipak matolar uchun xomashyo yetishmasdi va bori qimmat bo‘lgan. Shunday ekan bunday ipak matolarning narxi ham qimmat bo‘lgan[10]. Tashqi dushmanlarning tinimsiz tazyiqlari va o‘zaro ichki kurashlar natijasida aholi turmush sharoitining yomonlashishi ipak mahsulotlari iste’molchilari sonining kamayishiga olib keldi. Oddiy aholi vakillari ularni sotib olisholmagan. Xonlikning boshqa shaharlarida ham turli-tuman to‘qimachilik mahsulotlari tayyorlangan. To‘qimachilik harmandchilikning boshqa tarmoqlari ichida yetakchi bo‘lgan[9]. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan gazlamalar tayyorlash uslubi, sifati, foydalanilgan xomashyosining turi, bo‘yalishi, qayta ishlanishi kabi jihatlari bilan farqlanib turgan. To‘qimachilik mahsulotlarining asosiy xomashyosi paxta, ipak va jun hisoblangan. Bu davrda xonlikdagi shaharlar va yirik qishloqlarda olacha, bo‘z, chit, duxoba kabi to‘qimachilik mahsulotlari shuhrat qozongan. Tadqiq qilingan davrda xonlikning janubiy sarhadlari bo‘lgan Balx va uning atroflaridagi shaharlar: Andxud, Shibirg‘on, Qunduz, Talikon, Juzjon va Fayzobod hududlarida ham hunarmandchilikning to‘qimachilik sohasi taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Bu hududlarda karbas(paxtadan tayyorlangan yumshoq gazlama), olacha(yarim ipak chiziqli mato), turli xil baxmallar, bosma rangli chit, rangli va ipak matolar ishlab chiqarilgan[2]. Karbas(sanskrit tilida “paxta”) O‘rta Osiyoda eng keng tarqalgan matolardan biri bo‘lib, uning asosiy xomashyosi paxta hisoblangan. Karbasni tayyorlash XVI asrdan oldin ham O‘rta Osiyolik hunarmandlarga ma’lum bo‘lgan. Fors-tojik tilida ijod qilgan muarrixlar Zayniddin Vosifiy va Fazlulloh Ro‘zbexon asarlarida ham bu mato tilga olinadi[9]. O‘zbek tilidagi manbalarda bu mato “bo‘z” nomi bilan tilga olinadi. Bu mato XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrgacha manufaktura usulida tayyorlanib kelingan. Rossiya sanoati tovarlarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi bu kabi mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni urfdan qolishiga olib keladi. Yana bir oldingi asrlardagi kabi keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan biri yog‘ochsozlik edi. Bu turdagi hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi ustalar har xil yog‘ochlardan buyumlar yasashganlar. Yog‘ochi qattiq va pishiq daraxtlar tanlab olingan va ulardan qishloq-xo‘jalik asbob-uskunalari(omoch, aravalar va g‘ildiraklari,), uy-ro‘zg‘or jixozlari, charxlar, eshiklar, deraza romlari, beshiklar, sandiqlar naqshli ustunlar, ustun qoshlari, mehnat qurollariga soplar, va boshqa zaruriy buyumlar tayyorlangan. Yog‘ochsoz hunarmandlar orasida yog‘ochga naqsh berish bilan shug‘ullanuvchi ustalarning mavqeylari baland bo‘lgan. Saroylar, masjid, madrasalar ustunlari va eshiklarini, shuningdek, peshtoqlarini bezashda bunday hunarmandlarning qadri baland bo‘lgan. O‘rta Osiyoda hunarmandchilikning qadimdan keng tarqalgan sohalaridan biri temirchilik hisoblanadi. Hunarmandchilikning bu sohasi rivoji asosan mahalliy xomashyoga bog‘liq bo‘lgan. O‘zbekiston hududi metall xom ashyosiga boyligi uchun ham temirchilik qadim zamonlardan taraqqiy qilgan. Temirchilikning metall quyish bilan bog‘liq sohasi O‘rta Osiyoning ko‘p shaharlarida degrezlik (ya’ni qozon quyish) yoki qozonchi, Buxoro va Xorazmda pozagar yoki pozachi (omoch tishi quyuvchi) nomlari bilan yuritilgan. Degrezlar(degrezlik bilan shug‘ullanuvchi hunarmand) turli hajmdagi qozon, obdasta, shamdon, qorachiroq, choy idish, takchuyon(arava g‘ildiragiga xalqa), poza(omoch tishi) va boshqa metall buyumlar yasagan[5]. O‘rta Osiyoda XVII-XVIII asrlar hunarmandchiligida to‘qimachilik rivojlangani kabi qurol-yaroq ishlab chiqarishi ham katta ahamiyat kasb etgan. Buxoro o‘zining qimmatbaho qurollari bilan mashhur edi. Bu shaharda xanjar, qilich, zirh kiyimlar, qalqon va dubulg‘alar

tayyorlangan. Bunday qurol-yaroqlar qimmatbaho toshlar va naqshlar bilan bezatilgan. Ularni bezatishda kumush va oltin ham ishlatilgan. Buxoroda yasalgan qurollar ichida buxoro kamoni mashhur edi. Bu kabi kamon o‘klarini yasashda oltin, po‘lat va mis uchlardan foydalanilgan. Kamon o‘qi sadoqlari(o‘qdon) turli rangdagi bo‘yoqlar ishlatilgan qoplamalardan yasalgan. Ba’zan esa bu kabi sadoqlarni yasashda ipakdan yoki oltin iplardan foydalanilgan[7]. Bunday pishiq va sifatli kamonlar mamlakat tashqarisida ham xaridorgir bo‘lgan. Shayboniylar davrida ham hunarmandchilikning eng taraqqiy qilan tarmoqlaridan biri bo‘lgan kulolchilik ashtarxoniylar davrida ham yetakchi sohalardan biri o‘lib qolaverdi. Kulolchilik xonlikning barcha shaharlari va yirik qishloqlarda mavjud edi. Hunarmandchilikning bu turi taraqqiyotida butun O‘rta Osiyoga xos bo‘lgan bo‘lgan an’analar bilan birga, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham alohida ajralib turgan. Kulolchilik bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlar mevalar va shirinliklar solish uchun turli xildagi sopol idishlar, suyuqliklar uchun ko‘za va xumlar, shuningdek qurilish uchun silliqlangan va pishirilgan g‘ishtlar tayyorlaganlar. Ichki bozorda kulollarning mahsulotlariga talabning yuqoriligi, xomashyo manbai bo‘lgan soz tuproq va gilning ko‘p joylarda mavjudligi hunarmandchilikning bu turi taraqqiyotining asosiy omillari edi.

Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylar davridagi siyosiy tanglik, o‘zaro ichki kurashlarning avj olganligi va tashqi dushmanlarning tinimsiz tazyiqlari Buxoro xonligi iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir qildi. Bu hol hunarmandchilikda ham ko‘zga tashlanadi. Hunarmandchilik markazlari bo‘lgan yirik shahar va qishloqlarning vayron qilinishi soha tarmoqlarini ma’lum muddatga susayishiga olib keladi. Bu esa hunarmandchilik bilan tirikchilik qiluvchi aholining turmush-tarzini og‘irlashtirdi. Shunday bo‘lsada, turli xo‘jalik sohalari kabi hunarmandchilik tarmoqlaridagi an’analar ham o‘ziga xos tarzda davom ettirildi.

## ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, “Sharq”, 2001. –B. 272.
2. Ахмедов Б. А. История Балха. (XVI-первая половина XVIII в. ) Т., «Фан», 1982. – С. 224.
3. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001. –B. 186.
4. Бартольд В.В. Хлопководство В Средней Азии, Соч., т. II, ч. 1, стр. 441.
5. Jabborov I. O‘zbeklar. Toshkent, “Sharq”, 2008. –B. 58.
6. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Toshkent., 2021. –B. 251.
7. История народов Узбекистана. Т. 2., Тошкент, 1947. – С. 224.,74.,10.
8. Мирзоев А. М. Сайидо Насафи и его место в истории таджикской литературы. Сталинабад. 1954. –В. 10.
9. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в. XVI Т., «Фан», 1976. – С. 45., 46.
10. Сборникь князя Хилкова. Петербург, 1879. – С. 523.
11. Пещерова Е.М. Гончарное производства Средней Азии.-М-Л.:АН СССР, 1959. – С. 311.
12. Уляницкий В. А. Сношения России с Средней Азией и Индией в XVI-XVII вв. Москва. 2013. – С. 43.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 94:332.8 (575.1)

***Gulhayo IBADULLAYEVA,***
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti assistenti,*

*O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) O.Radjabov taqrizi asosida*

## THE ISSUE OF RELIGIOUS TOLERANCE AMONG NATIONS IS THE GUARD OF DEVELOPMENT

Annotation
The idea of interreligious tolerance implies the cooperation of not only religious people, but also all members of society in the path of goodness and is an important condition for peace and stability. Since time immemorial, in the big cities of our country, special attention has been paid to the safe and free worship of representatives of different nationalities, conditions have been created, and the fact that there have been no conflicts on religious grounds in history shows that our people have a great experience in inter-religious tolerance.
**Key words:** Interreligious tolerance, interethnic harmony, traditions and values, Shomahmudov family.

## ПРОБЛЕМА РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ МЕЖДУ НАЦИОНАМИ – НА СТРАЖЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация
Идея межрелигиозной толерантности предполагает сотрудничество не только религиозных людей, но и всех членов общества на пути добра и является важным условием мира и стабильности. С незапамятных времен в крупных городах нашей страны уделялось особое внимание безопасному и свободному богослужению представителей разных национальностей, создавались условия, а тот факт, что в истории не было конфликтов на религиозной почве, показывает, что Наш народ имеет большой опыт межрелигиозной толерантности.
**Ключевые слова:** Межрелигиозная толерантность, межнациональное согласие, традиции и ценности, семья Шомахмудов.

## MILLATLAR O‘RTASIDAGI DINIY BAG‘RIKENGLIK MASALASI - TARAQQIYOT GAROVIDIR

Annotatsiya
Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi nafaqat dindorlarning, balki butun jamiyat a’zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Azal-azaldan yurtimizning yirik shaharlarida turli millat vakillarining ibodatlarini emin-erkin ado etishlariga alohida e’tibor qaratilgan, sharoitlar yaratilgan, tarixda diniy asosda mojarolarning chiqmaganligi xalqimizning dinlararo bag‘rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi.
**Kalit so‘zlar:** Dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, urf-odat va qadriyatlar, Shomahmudovlar oilasi.

**Kirish.** Mamlakatimiz hududida qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari hamjihatlikda yashab kelmoqda. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan. Xalqimiz azaldan bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, kechirimlilik, boshqalarning urf-odat va qadriyatlarini e’zozlash kabi umuminsoniy fazilatlarini ko‘rsatib kelgan. Millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi, ayniqsa, urush yillarida namoyon bo‘ldi. Shu davrda O‘zbekistonga 1 milliondan ortiq kishi, jumladan, 200 ming bola evakuatsiya qilindi. Turli millatga mansub yetim bolalarni o‘zbek xalqi o‘z farzandiday ardoqlab, ularni voyaga yetkazdi. Masalan, toshkentlik Shoahmad Shomahmudovlar oilasi insonparvarlikning yuksak namunasini ko‘rsatdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Shoahmad Shomahmudov va uning ayoli Bahri Akramova turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka olib, ta’lim-tarbiya bergan. Ular boshpanasiz qolgan, turli millat vakillari bo‘lgan 13 bola va urushdan so‘ng yana 3 bolani o‘z tarbiyalariga olishgan. Bular: Habiba, Vova, Shuhrat – rus, Hamidulla – ukrain, Rafiq, Rahmatulla – tatar, Holida – moldavan, Samug‘ – chuvash, Yo‘ldosh, Ergash – yahudiy, Halima – qozoq, Qoravoy, Ne’mat, Muazzam, Hakima, Ulug‘bek – o‘zbek. Shomahmudovlar oilasi insonparvarlikni ulug‘lovchi oila sifatida katta jasorat, qahramonlik ko‘rsatdi. O‘zbekiston kabi ko‘p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarni uyg‘unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta’minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog‘liqdir. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan xalqlar o‘rtasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo‘lmasa, ulardan hech biri o‘zining porloq istiqbolini ta’minlay olmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlanib, bu yo‘nalish doirasida millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari hamda diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi ishlab chiqilib, bu borada juda katta ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma’lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Shu o‘rnida aytish mumkinki, barcha dinlar, ilohiy ko‘rsatmalar insoniyatni faqat ma’rifat, ezgulik va yaxshilikka chaqirib kelgan. Ularni oxiratdan qo‘rqishga, Yaratganni oldida albatta javob berishdan, savob

ishlar uchun mukofat va yomon amallar uchun jazo muqarrar ekanligidan ogohlantirib turgan. Yaxshi ishlarni bajarishda o‘zaro hamkorlikka chaqirgan hamda jaholat, razolat va qabohat ishlardan qaytargan. Dinlar ta’limoti bag‘rikenglikka, chiroyli xulq-odobga, sabr-bardoshlikka chaqirib, insonlarni doimo shukrona keltirib hayot kechirishga da’vat etib kelgan. Shuningdek, bu ezgu g‘oya va amallar bugungi kunda davlatimiz tomonidan asosiy e’tibor qaratilgan sohaga aylangan.

Millatlararo totuvlik – millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlikdir. Millatlararo totuvlik milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan sanalib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihatlikda, birgalikda, hech qanday nizolarsiz hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushunchadir. Millatlararo totuvlikni bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, do‘stlik va hamjihatlikning ma’naviy asosi deb atash mumkin. Millatlar o‘rtasidagi mushtarak ezgu maqsadlarni nazardan qoldirmaslik azaliy qadriyatlar taraqqiyoti asosini tashkil qiladi.

Millatlararo totuvlikka e’tibor qaratilishi O‘zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning turli kasb-korlarda faoliyat olib borishi, urf-odat va an’analardan xabardor bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Bu bevosita ma’naviy qadriyatlarning millat ichida rivoj topib, yana-da boyishiga olib keladi.

Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an’ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yana-da rivojlantirish, boyitish masalasi davlatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Bugun umumiy o‘rta talim maktablarimizda 7 tilda – o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qirg‘iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning 10 ta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin namunasidir.

Ma’lum ma’noda, diniylik va dunyoviylik bir-biriga mutlaq zid tushunchalar ham emas. Ular dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usullaridir. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Dindorlik esa qalbga bog‘liq hissiyot. Uni barchaga majburiy singdirish hech qaysi diniy tamoyillarga to‘g‘ri kelmaydi. Dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatdan ajralmagan. Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma’naviy qiyofasining muhim qismlaridan hisoblanadi. Islom dinida dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi[1].

Shunday qilib, aytish mumkinki, davlat hayotining dunyoviylashuvi va ratsionallashuvi jarayoni kuchayganligiga qaramasdan davlat va diniy institutlar o‘rtasidagi aloqa saqlanib qolmoqda. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuksak cho‘qqilarga yetishidan qat’iy nazar jamiyatda dinga bo‘lgan munsabat jiddiy o‘zgarmadi. Ma’lumotlarga qaraganda, XXI asr boshiga kelib, hatta bir qator zamonaviy Yevropa davlatlarida diniy qarashlar va e’tiqodlar ustunlik qilishda davom etib kelmoqda. Masalan, Polsha aholisining 94 foizi, Italiyaliklarning - 84 foiz, Ispaniyaliklarning - 78 foizi Rim-katolik cherkoviga sodiq qolgan. Gretsiyada nasroniylikning pravoslavlik oqimiga aholining 95 foizi o‘z e’tiqodini saqlanib qolgan. Sekulyarlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda aholining salmoqli qismi o‘zlarining an’anaviy e’tiqodlarini va cherkov institutlariga yuqori darajadagi ishonchni saqlab qolgan: Belgiyaliklarning 49,4 foizi, Buyuk Britaniyaliklarning 42,8 foizi, Germaniyaliklarning 39,7 foizi cherkovga ishonch bildirgan. Qo‘shma Shtatlarda aholining diniy tashkilotlarga bo‘lgan ishonch darajasi 76 foizni tashkil qilgan[2].

Darhaqiqat, yuqorida missollar keltirilgan jahoning yetakchi mamlakatlarda dunyoviy davlat qurilishi jarayonida diniy erkinliklarning ta’minlanish masalasi negizida katta tajriba mavjudligini qayd etish zarur. Bu davlat-huquqiy institutlarining uzoq davom etgan evolyutsiyasi natijasi edi. Ular muayyan tarixiy davrda milliy manfaatlarni anglash, milliy manfaatlar va inson huquqlari o‘rtasidagi mutanosiblik tufayli yuzaga kelgan. Buyuk Britaniyada diniy qarashlar uchun javobgarlikka tortmaslik tamoyili 1689 yildagi bag‘rikenglik to‘g‘risidagi qonun faqat protestant konfessiyalariga nisbatan qo‘llanilgan. Katoliklarga esa 1832 yilgacha diniy va fuqarolik huquqi cheklovlari qo‘yilgan. Faqat 1974 yildan boshlab katolik dini vakillari eng yuqori davlat lavozimlarini, shu jumladan lord-kanslerni ham egallash uchun rasmiy huquqqa ega bo‘ldilar. 1814 yilda qabul qilingan Norvegiya Konstitutsiyasida joriy etilgan diniy cheklovlar bosqichma-bosqich yuz yildan ortiq vaqt davomida bekor qilingan. Ispaniyada esa katolik bo‘lmagan ispanlarga nisbatan diniy cheklovlar faqat 1975 yilda general Franko vafotidan keyin bekor qilindi[3].

Umuman olganda, dunyoviy davlat sharoitida davlat va diniy munosabatlarini turkumlashtirish (tipologiya) hamda diniy birlashmalarning huquqiy maqomi masalasiga kelganda huquqshunoslarning fikricha muammoli va zamonaviy huquq fanida munozarali masala ekanligini ta’kidlashadi. Hozirgi zamon huquqshunoslari bu yo‘nalishda muayyan ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, biroq bu masalada terminologik birlikning yo‘qligi muammoning yechimini murakkablashtirayotganligini ta’kidlashadi.

Aynan ushbu masala doir muammo “vijdon erkinligi” va u bilan bog‘liq qator atamalarning mahalliy yuridik lug‘atlarda hamda adabiyotlarda bir tomonlama yechimini topganini ham alohida qayd etish lozim. Ushbu muammoni huquqshunos olim J.Toshqulov quyidagicha ta’riflaydi: “...“vijdon”, “e’tiqod”, “erkinlik”, “dahriylik”, “ibodat” mazmunan murakkab, serqirra va keng qamrovli tushunchalar bo‘lib ularni faqat din bilan bog‘lab talqin qilish noilmiydir”[4].

O‘z fikrlarini davom ettirib, mutaxassis, “...xalqaro huquqiy xujjatlarda vijdon erkinligi va din erkinligi tushunchalari qam qullaniladi. Vijdon erkinligi keng qamrovli, serqirra va murakkab tushuncha ekanligini, insonning ichki kechinmalari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq nozik masalaligini, uning turlicha talqin etilishi uning bilan bog‘liq huquqiy normalarni amaliyotga tadbiq etishdan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muommolarning oldini olish uchun vijdon erkinligining asoslangan tarifini yaratish va uning qonun xujjatlarida o‘z aksini topishini ta’minlash lozim” [5], deb ta’kidlaydi.

Yuqoridagi fikrga tayangan holda, ta’kidlash kerakki, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida e’lon qilingan vijdon erkinligi huquqiy amaliyoti bir biriga to‘g‘ri kelmasligini, ayniqsa diniy birlashmalarning huquqiy holatini tartibga solish turli yo‘llar bilan amalga oshirilishini hisobga olish zarur. Darhaqiqat postsovet mamlakatlari tarixiy amaliyoti bir biriga yaqinligini hisobga olib, rossiyalik mutaxassis I. Kunitsin tomonidan ilga surilgan turkumlashning quyidagi turlari eng maqbuli deb, hisoblaymiz.

Mintaqa davlatlari bosh qomuslarini solishtirganda O‘zbekistondan tashqari Markaziy Osiyoning barcha davlatlari o‘zini dunyoviy davlat deb e’lon qilgan, ya’ni ular o‘z konstitutsiyalarining tegishli moddalarida “dunyoviy” iborasini ishlatgan. To‘g‘ri, ushbu iborani qo‘llanilmagani davlatimiz dunyoviy emas degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Chunki, Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili Konstitutsiyamizning 61-moddasida aks etgan: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar

davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”[6]. Ammo mamlakat qonunchilik tizimida ushbu iborani qo‘llash orqali din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda aniqlik kiritar edi.

O‘zbekistonning dunyoviy davlat sifatidagi din bilan o‘zaro munosabatlari tamoyillari Birinchi Prezident I.A. Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida tavsiflangan: dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish; diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish; diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik; ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati; dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish[7].

Mamlakatimizda diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmaydi. Chunki yosh avlodni tarbiyalashda, milliy qadriyatlarni asrab avaylashda, o‘zbek xalqiga xos fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o‘zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharmu hayo kabi eng oliy insoniy tuyg‘ularning tub mohiyatini anglash va ko‘z qorachig‘idek e’zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarining roli va o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan har qanday mamlakatda din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning muhim qirrasini din va siyosat orasidagi aloqalar tashkil etadi. Albatta, bu borada har bir davlatning tarixiy tajribasi va taraqqiyotining xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aholisining ko‘pchiligini musulmonlar tashkil etuvchi ayrim mamlakatlarning oxirgi o‘n yilliklardagi tajribasi “islom – olamshumul dinlar orasidagi eng siyosiylashgan dindir” deya da’vo qilayotgan olimlar va siyosatchilarning fikrini tasdiqlayotgandek ko‘rinadi. Ayrim mutaxassislar, hatto “islom – siyosiy hayotning eng asosiy omillaridan biridir, uni – siyosatdan, siyosatni esa, undan ajratib bo‘lmaydi”, deya xulosa qilmoqdalar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hech qaysi din o‘zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning barcha jihatlarini qamrab olishga da’vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo‘lmay qoladi. E’tirof etish lozimki, har qanday diniy e’tiqod kabi islom ham barcha davrlarda, shu jumladan, dahriylik keng targ‘ib etilgan sho‘ro tuzumi zamonida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy-ruhiy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan muhim omillardan biri bo‘lib qolavergan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, vijdon erkinligi huquqining amalga oshirilishini biron bir belgi asosida cheklanmasdan, jamiyatning xususiyatlarini obyektiv baholash, diniy birlashmalarning huquqiy holatini, qonun hujjatlarida mustahkamlangan shaxsiy huquq va erkinliklarning me’yorini hisobga oladigan ko‘p faktorli tahlilga asoslanishi kerak. Davlat va diniy birlashmalar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini jahon va mahalliy tarixiy-huquqiy tajribani hisobga olgan holda qurish diniy sohadagi umumiy va xususiylikni aniqlash, qonunchilikni amalga oshirish bilan bog‘liq murakkab muammolarni hal qilish yo‘llari va vositalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida diniy xavfsizlikning maqbul milliy konsepsiyani ishlab chiqish, konfessiyaviy munoasabatlar o‘rtasidagi nizolarni hal etishda xalqaro tajribani hisobga olishni nazarda tutadi.

**ADABIYOTLAR**


1. Нуриддин ҳожи Ҳолиқназаров. Динийлик ва дунёвийлик Ислом нигоҳида // https://sammuslim.uz/ articles/actual/ diniylik-va-dunyoviylik-islom-nigohida
2. Логинов А.В. Власть и вера. Государственные и религиозные институты в истории и современности. М., 2005. С. 419-420.
3. Модели государственно-конфессиональных отношений: зарубежный опыт правового регулирования // https://isfic. info/sovpop/petova03.htm
4. Тошқулов Ж. Ўзбекистон Республикасида виждон эркинлигининг ҳуқуқий кафолатлари. Т., 2020. 13-бет.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // https://lex.uz/docs/20596
6. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. 58-59-бетлар.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: K12. 63.4Ya.73

***Sayyora MIRSOATOVA,***
*Farg'ona davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*
*E-mail:sayyoramirsoatova@mail.ru*

*Farg'ona davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori M.Isomiddinov taqrizi asosida*

## FARG‘ONA VODIYSI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING ILK TADQIQOTLARI BORASIDA

Annotasiya
Maqolada o‘zbek arxeologiyasi, uning shakllanish bosqichlari xaqida so‘z borib, keying bosqichlarda asosan Farg‘ona vodiysi tosh davri arxeologik yodgorliklari va ularni o‘rganilishi tahlil etilgan.
**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona, vodiy, tosh davri, paleoyekologik, homo,daryo.

## О ПЕРВЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ АРХЕОЛОГИИ КАМЕННОГО ВЕКА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация
В статье рассказывается об узбекской археологии, этапах ее становления, а на следующих этапах анализируются археологические памятники каменного века Ферганской долины и их изучение.
**Ключевые слова:** Фергана, долина, каменный век, палеоэкология, гомо, река.

## ABOUT THE FIRST RESEARCH OF THE ARCHEOLOGY OF THE STONE AGE OF THE FERGHANA VALLEY

Annotation
The article talks about Uzbek archeology, the stages of its formation, and at the next stages the archaeological monuments of the Stone Age of the Fergana Valley and their study are analyzed.
**Key words**: Fergana, valley, Stone Age, paleoecology, homo, river.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda arxeologi-ya fani va uning sohalar yo‘nalishi rivojida yangiliklar paydo boldi. Shunday bo‘lsada tadqiqot doirasidan kelib chiqib mustaqillikdan oldin olingan ilmiy xulosalarni ham o‘rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Farg‘ona vodiysining moddiy madaniyat yodgorliklari XIX asr oxirlaridan boshlab arxeologik izlanishlar olib boruvchi mutaxassislar qiziqishiga sabab bo‘lib, o‘rganilib kelinmoqda. Chunki, vodiy, qadimdan qulay paleoyekologik, iqlim sharoitlari, fauna va florasinning rang-barangligi bilan qadimgi odamlar va jamoalarni o‘ziga jalb qilib kelgan.

Farg‘ona vodiysi jahon sivilizatsiyasi zanjirida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri hisoblanadi. Vodiy hududida tariximizda eng muhim hisoblangan bir necha olamshumul kashfiyotlar qilingan.

Farg‘ona vodiysi paleolit davrining muhim chorrahasi bo‘lib, ko‘hna madaniyatlarning o‘zaro qorishuv jarayonlari sodir bo‘lgan hudud sanaladi. Bu esa qulay geografik joylashuv bilan uzviy bog‘liqdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Farg‘ona vodiysi tosh davri arxeologiyasining ilk tadqiqotlari borasidagi adabiyotlar tahlilini arxeologik manzilgohlar bo‘yicha guruhlarga bo‘lib amalga oshirish maqsadga muvofiq. O‘.Islamov [1], T.Omanjulov [2] A.Zubov [3] V.Xaritonov [4], B.Batirov [5] larning tadqiqotlari birinchi guruhni tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga P.Konoplya [7], A. Okladnikov [8], N. Leonov[9]larning tadqiqotlari tashkil etdi. Uchinchi guruhni B.Litvinskiy [10], V.Ranov[11], P.T.Konoplya[12] kabi arxeloh olimlar ilmiy ishlari tashkil etdi.

**Natija va yechimlar.** So‘x darosining yuqori oqimi-dan Markaziy Osiyoda mashhur paleolit davriga oid Selungur va Chashma yodgorliklari topib o‘rganilgan. Ulardan Selungur yodgorligi “Farg‘ona odami” nomi bilan fanga kiritilgan “Homo eructus”larning suyak qoldiqlari bilan alohida ahamiyatga molik manzilgoh sanaladi [9].

Selungur makonidan paleoantropologik, paleofaunistik va paleofloristik qoldiqlardan tashqari 5000 ga yaqin tosh buyumlar qo‘lga kiritilgan. Mazkur tosh buyumlarni (toshga ishlov berish texnikasiga ko‘ra) 2 turga ajrataish o‘rinli:

1) birlamchi ishlov berish ya’ni toshni sindirish (chaqmoqlash) natijasida o‘zaklar (nukleus), yo‘nilg‘i (plastina) va tosh uchirindilar (otshep) olingan. Demak, yodgorlikning tosh industriyasida ilk paleolit davriga xos yirik va qo‘pol, zarb maydonchalari keng uchirindilar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Plastinalar deyarli uchramaydi. Levallua (paleolit davriga xos toshga ishlov berish, chaqmoqlash texnikasining bir turi) turidagi uchirindilar juda kam. Nukleuslar to‘plamda ko‘p emas, ular asosan gardishsimon, sharsimon, bir zarb maydonli, ikki zarb maydonli va kichik xajmdagi o‘zaklardir. Selungur o‘zaklariga xos bo‘lgan jihat shundaki, ular asosan haddan tashqari ishlov berilgan tashlandiq ko‘rinishlarga ega.

2) Ikkilamchi ishlov berilgan (o‘sha sindirib, chaqmoqlab olingan yo‘nilg‘i va uchirindilarga ishlov berish-retushlash orqali uni biror mehnat yoki ov quroliga aylantirish tushuniladi) tosh buyumlar foizi yodgorlikdagi umumiy toshlarning o‘ndan birini tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida chopperlar, choppinglar, to‘g‘ri yoki bo‘rtib chiqqan qirrali qirg‘ichlar, tishsimon retushli, o‘yib-kertib ishlangan hamda kompozit qurollar, retushlangan tosh bo‘laklar va uchirindilar mavjud. Bundan tashqari, to‘plamda tosh boltalar (kliverlar), ikki taraflama ishlangan qo‘l cho‘qmorlari (bifaslar), tosh randalar, paykonlar va ikki tig‘li paykonlar (limaslar) uchraydi.

Yodgorlikda tosh buyumlarni yasashda sariq, jigarrangli yashma, kulrang yashil gilli slanets hamda to‘q kulrangli vulqon jinslaridan foydalanilgan. Xom-ashyo yodgorlikning pastidagi daryo o‘zanidan galka shaklida olib kelingan va bu tabiiyki, Selungur industriyasining umumiy ko‘rinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Mazkur tosh qurollar insoniyatning toshdan yasalgan eng qadimgi mehnat va ov

qurollari hisoblanadi. Ilk paleolit davrining biror madaniyatiga (ashel, mikok, klekton va boshqa) xos bo‘lgan mazkur tosh qurollar qadimgi ajdodlarimizning xo‘jalik turmush tarzida ma’lum bir o‘ziga xos vazifani bajargan. Yodgorlikning tosh qurollari orasida eng yorqinlaridan bu 5-madaniy qatlamdan topilgan qizil yashma toshidan ishlangan nayzasimon shakldagi qo‘l cho‘qmori, ayni shu tosh qurol mintaqa hududida topilgan birinchi va eng qadimgi qo‘l cho‘qmoridir. Selungur g‘ori madaniy qatlamlaridan olingan tosh qurollar morfologik (shakli jihatidan) o‘ziga xos bo‘lib, ularning aksariyati asosan qadimgi (arxaik) ko‘rinishga ega.

Selungur g‘ori materiallari madaniy jihatdan Osiyocha ashel madaniyatiga kiritilgan. Ma’lumki, ashel ilk paleolitning Afrika, Yevropa va G‘arbiy Osiyoga xos madaniyatlaridan biri bo‘lib, ular asosan bifaslar ishlab chiqarilishi bilan xarakterlanadi. Osiyocha ashel esa undan biroz farq qilib, bifaslar, ya’ni qo‘l cho‘qmorlari bilan birga kliverlarni ham uchrashi bilan ajralib turadi[9].

Vodiy tosh davri arxeologiyasiga oid ilmiy izlanishlar o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlangan. 1953 yildan tashkil etila boshlangan tosh asrini o‘rganishning tizimli tadqiqotlari natijasida topilgan buyumlar va manzilgohlar dastlab, P.T.Konoplya, keyin esa A.P. Okladnikov tomonidan tadqiq etilgan [14]. Farg‘ona vodiysining janubi-g‘arbiy qismida 1954–1956 yillardagi Qayroqqum suv ombori qurilishi paytida A.P.Okladnikov va V. A. Ranovlar tomonidan qadimgi tosh davriga oid ko‘plab manzilgohlar tadqiq etiladi [15]. 1956 yildan P. T. Konoplya Ayirboz 1–7, Karamko‘l [14] va Qapchug‘ay qadimgi tosh davri ustaxonasi va boshqa bir qator qadimgi tosh manzilgohlarini ochildi. Qapchug‘ay ustaxonasi 1958–1959 yillarda A. P. Okladnikov boshchiligidagi qadimgi tosh davri bo‘yicha guruhi vakili M. Qosimov tomonidan o‘rganiladi [14].

1964 yilning 25 mayidan 15 iyunigacha O‘ZSSR FA TAIning arxeologik otradi Ya. G‘. G‘ulomov boshchiligida Farg‘ona vodiysi hududida arxeologik qazishmalar olib bordi. Natijada, turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar, shu jumladan, Farg‘ona shahri atroflari, Oloy tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘ridagi tog‘lar qa’ri va So‘x darosi vodiysida joylashgan qadimgi tosh davriga oid bir nechta yodgorliklar aniqlandi. Shuningdek, ekspeditsiya a’zolari tomonidan Qoraqalpoq dashtida ikkita neolit davriga oid manzilgoh, qadimgi Pop shahri atrofidagi Chilhujra (Qirqhujra yoki G‘arqiz deb ham ataladi) va Munchoqtepa antik shahar xarobalari, shuningdek, ilgari fanga ma’lum bo‘lgan Haydarkon g‘arbidagi soydan 30–40 m. balandlikda joylashgan Selungur g‘ori ham o‘rganildi [13].

M.Qosimov tomonidan Farg‘ona shahridan 10 km shimoli-sharqda joylashgan adirlar va Qal’acha qishlog‘idan 2 km. shimoli-g‘arbda o‘rta paleolit davriga oid topilmalar to‘plandi. Toshqinlar ta’sirida adirning yuqori qatlami yuvilib ketgan bo‘lib, qayroqtoshlar qatlami ochilib qolgan. Ushbu hududda 5 ta o‘rta paleolit davri manzilgohi ochilib, ulardan faqat ko‘tarma materiallar olingan. Shunday bo‘lsa-da, mazkur tosh qurollar hududni arxeologik jihatdan tadqiq etishga imkoniyat yaratdi [14].

Qal’acha IV–V manzilgohlari shimoldan janubga 10 km. uzunlikda cho‘zilgan. Ushbu yodgorliklardan topilgan tosh qurollar majmuasi chaqmoqtosh va muguzdan ishlangan bo‘lib, ular faqat o‘rta paleolit davri uchun xosdir. Qayd etish kerakki, topilmalar orasida 150 ga yaqin retushlangan levallua tig‘lar, qirg‘ichlar, disksimon va ikki maydonli nukleuslar, plastinalar hamda uchirindilar uchraydi [13].

1954 yilda boshqa bir farg‘onashunos Yu.A. Zadneprovskiy ilk o‘rta asrlar bo‘yicha yetarli ma’lumotlar to‘plab, vodiy tarixida alohida davrni o‘sha paytdagi taniqli arxeologik yodgorlik nomi bilan “Koson” deb nomlagan edi [7].

Ilk o‘rta asrlar arxeologik komplekslarini tahlil etishda V.A. Bulatovaning Janubiy Farg‘onada joylashgan Quva yodgorligida olib borgan tekshirishlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ushbu olima tomonidan yodgorlikning turli nuqtalarida keng ko‘lamli qazishma ishlari olib borildi. Natijada, yodgorlikning rabod (2-shahriston) qismidan vodiy uchun yagona buddaviylik ibodatxonasi deyarli butun holatda kavlab ochildi [5].

Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar tarixi va madaniyatini o‘rganishda N.G.Gorbunovaning hissasini alohida ta’kidlash kerak. Uning ilmiy izlanishlarida ilk o‘rta asrlar madaniyatining kelib chiqishi masalalari ham ko‘tarilgan edi [6]. Vodiy hududidagi eng yirik qadimiy yodgorlik hisoblangan Axsikentda 1970 yillarda I.Ahrorov, 1979 yildan A.Anarbayev rahbarligidagi arxeologlar guruhi tadqiqot ishlari olib borganlar va bugungi kunda ham ushbu ishlar davom ettirilmoqda [2].

Yodgorlikning turli qatlamlaridan qadimiy ziroatkorlar (Chust madaniyati – miloddan avvalgi XII-VII asrlar)ga oid sopol idish qoldiqlari hamda ibtidoiy odamlar (so‘nggi paleolit – bundan 40-30 ming yil avval)ga oid tosh qurollar topilgan. Bu holat davlatimizning hozirgi siyosatiga monand arxeologik turizmni rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

Guruhning Buloqboshi tumanida olib borilgan tadqiqotlari natijasida esa so‘nggi paleolit davrining boshlariga xos bo‘lgan Qo‘tirbuloq manzilgohi qazib o‘rganildi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qo‘tirbuloqliklar teridan kiyim kiygan, yog‘och va toshdan ov qurollari, hayvon suyaklaridan esa taqinchoqlar ham yasashni o‘zlashtirgan edi [17].

Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda olib borilgan Andijon viloyatida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topib o‘rganilgan Qo‘tirbuloq manzilgohi Toshkent viloyatidagi Obirahmat madaniyatining bir bo‘lagi sifatida e’tirof etildi. Demak, o‘rta paleolitdan so‘nggi tosh davriga o‘tish jarayonlarini o‘zida aks ettirgan dunyoga mashhur ushbu madaniyat keng hududlarda tarqalgan va mazkur madaniyat sohiblari vodiy hududlarini o‘sha davrdayoq o‘zlashtirgan edi.

Farg‘ona vodiysining arxeologik jihatdan o‘rganilishida tosh davri tarixi alohida ahamiyatga molik. Chunki ushbu o‘ziga xos vodiy yuqori tog‘li hududlari eng qadimgi insoniyat yashab faoliyat yuritgan maskanlar qatoridan o‘rin egallaydi. Bu borada yuqorida alohida qayd qilingan Selungur g‘or-makonini eslatishning o‘zi kifoya. Shunday bo‘lsada yaqin vaqtgacha vodiy hududidagi tosh davrining turli bosqichlariga oid manzilgohlarning o‘rganilishi borasida keng ko‘lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligini guvohi bo‘lganmiz. Bajarilgan ishlar albatta o‘z davri uchun keng ko‘lamli hamda yangi topilma joylar sifatida arxeologiya fanida o‘z davrining muhim kashfiyotlari sifatida tan olingan. Olib borilgan tadqiqotlar yaxshi natijalarni yuzaga chiqargan bo‘lsada, masalaning u yoki bu jihatlarini ochib bergan xolos. Shu jihatdan bugungi kundagi zamonaviy uslublarni qo‘llagan holda olib borilayotgan yangi tadqiqotlar Farg‘ona vodiysi tosh davri bosqichlarini kompleks tarzda o‘rganish imkonini yaratmoqda.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, Farg‘ona vodiysidagi tosh davri manzilgohlari va ulardan topilgan ashyoviy buyumlar vodiy tarixini yanada boyitib kelmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar esa vodiyning qo‘shni hududlar bilan juda qadimdan madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yganligini ko‘rsatadi. Oxirgi yillarda vodiy arxeologiyasiga oid tadqiqotlar soni va salmog‘i ortib borayotganligi esa quvonarli holdir.

Aytish joizki, ushbu tadqiqotda Farg‘ona vodiysi arxeologik o‘rganilishi tarixshunosligiga nigoh tashlandi, xolos. Aslida, ushbu mavzu alohida, chuqur ilmiy tahlillarga

boy tadqiqot talab etadigan tadqiqot uchun mavzu bo‘lib ham xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**


1. Anarbayev A. Axsikent arxeologiya parki. – Toshkent, Fan. 2023. – 376 b.
2. Анарбаев А. Ахсикет – столица Древней Ферганы. – Ташкент, 2013. – 384 с.
3. Батыров Б. Х., Батиров А. Р. Ископаемые мелкопитающие пещеры Сел-Унгур / Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. – Ташкент, 1988. – С. 7–12.
4. Бернштам А. А. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951.
5. Булатова В. А. Буддийский храм в Куве // СА. – 1951. – №3. – С. 241–250.
6. Горбунова Н. Г. Итоги исследования археологических памятников Ферганской области (к истории культуры Ферганы) // СА. – 1979. – № 3. – С. 16–34.
7. Заднепровский Ю. А. Древняя Фергана. Автореф. дисс... канд. иист. наук. – Л., 1954.
8. Исламов У. И. Первая нижнепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // Общшественные науки Узбекистана (Кейинги ўринларда – ОНУ). – 1984. – №8. – С. 4–12.
9. Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сельунгур в Ферганской долине // СА. 1990. №2. – С. 115–126.
10. Исламов У. И. Итоги и перспекивы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур / Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии.  – Ташкент, 1988. – С. 12–18.
11. Исламов У. И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. – Самарканд, 1984. – Вып. 19. – С. 5–11.
12. Исламов У. И., Зубов А. А., Харитонов В. М. Палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Вестник археологии. – Москва, 1988. – Вып. 80. – С. 66–71.
13. Касымов М. Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып. 7. – Ташкент, 1966. – С. 28–33.
14. Конопля П. Т. Следы людей каменного века на территории Южной Киргизии / Известия АН Киргизской ССР. Вып. 1. – Бишкек, 1959. – С. 45–47.
15. Литвинский Б. А., Окладников А. П., Ранов В. А. Древности Кайраккумов / Труды Института истории АН ТаджССР. – Душанбе, 1962.
16. Латынин Б. А. Работы в районе проектируемой гидростанции на реке Нарын в Фергане // ИГАИМК. Вып. 110. – М., 1935.
17. Сайфуллаев Б., Абдуллаев Б., Раҳимов И. 2017. Б. 25

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:94(575.1)

***Rohila RAJABOVA***,
*Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail:rohilazakirovna@gmail.com*

*O‘zMU professori B.To‘ychiyev taqrizi asosida*

## REFLECTION OF THE FUNDAMENTALS OF TOLERANCE IN THE WORKS OF SUFI SCIENTISTS

Annotation

This article analyzes the ideas of tolerance in the works of Sufi scholars who lived and worked during the Mangit period, and reveals their significance in the education of youth.

**Key words:** Sufism, manuscript, Naqshbandiya-Mujaddidiyya, Sufi, sheikh, Futuvwat, youth, tolerance.

## ОТРАЖЕНИЕ ОСНОВ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ТРУДАХ СУФИЙСКИХ УЧЁНЫХ

Аннотация

В данной статье анализируются идеи толерантности в трудах учёных-суфистов, живших и творивших в период Мангита, и раскрывается их значение в воспитании молодёжи.

**Ключевые слова***:* суфизм, рукопись, Накшбандия-Муджаддидия, суфий, шейх, Футувват, молодость, толерантность.

## MUTASAVVIF ALLOMALAR ASARLARIDA BAG ‘RIKENGLIK ASOSLARINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mang‘itlar davrida yashab faoliyat olib borgan mutasavvif allomalarning asarlarida yoritilgan bag‘rikenglik g‘oyalari tahlil qilingan va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, qo‘lyozma, naqshbandiya-mujaddidiya, sufiy, shayx, futuvvat, javonmardlik, bag‘rikenglik.

**Kirish.** Bugungi kunda tasavvuf ta’limotining tarixiy shakllanish jarayonlarini tadqiq etish, tasavvufga oid manbalarni xolisona o‘rganish barobarida uning bugungi globallashuv sharoitida insonlar hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, diniy va dunyoviy qarashlar uyg‘unligidan iborat tasavvuf ta’limotining to‘g‘ri talqini bir jihatdan turli mutaassib ekstremistik g‘oyalarga qarshi turishga xizmat qilsa, uning noto‘g‘ri talqini turli tariqatchilik harakatlariga asos yaratib beradi. Uzoq asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilgan Movarounnahr tasavvuf ta’limoti XVIII asrdan boshlab islom mamlakatlarida mutaassib g‘oyalar asosida shakllanib, bugunga qadar tobora avj olib borayotgan salafiylik, jihodchilik hamda boshqa oqim va harakatlarga qarshi turishda ma’naviy to‘siq vazifasini bajarib kelgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. Movarounnahr tasavvufi boshqa yurt tasavvuf ta’limotlaridan o‘ziga xos xususiyatlari, maqsad va yo‘nalishlari, usul va uslubiyati bilan farqlanib turgan. Zero, tarixan Turon zaminida shakllangan bag‘rikenglik tamoyillariga yo‘g‘rilgan o‘lka tasavvufi asrlar davomida turli din, millat va madaniyat vakillari yonma-yon totuv yashab kelishlariga o‘z hissasini qo‘shib kelgan. Ayniqsa, Movarounnahrdagi yirik tariqat hisoblangan naqshbandiyani boshqa tariqatlardan farqlab turuvchi, tarkidunyochilik emas, ijtimoiy faol hayot tarziga undovchi «Dil ba yoru, dast ba kor» shiori ostida shakllangan ilmiy-ma’naviy merosini diqqat bilan o‘rganish qadriyatlarimizga yuksak e’tibor berilayotgan bir vaqtda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, naqshbandiya tariqatida yuksak ma’naviy mezonlar, insoniy fazilatlar haqidagi ta’limotning kundalik hayot va oddiy insonlar turmush tarziga yaqinlashtirilgani uning tadrijiy taraqqiyotiga hamda har qanday zamon va makonga mos kelishiga zamin yaratgan deyish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tasavvufga oid manbalar-da yoritilgan axloqiy tamoyillar orasida bag‘rikenglikning alohida o‘rni bor. Islom dini bag‘rikenglikka targ‘ib qiluvchi din ekanligi shubhasiz. Afsuski, so‘nggi paytlarda islom nomidan turli buzg‘unchilik, odamlar orasida xavf va qo‘rquv uyg‘otish, tinch aholi qonini to‘kish, mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi qabih ishlarni amalga oshirayotgan ayrim toifalar ko‘payib bormoqda. Prezidentimiz bu haqda “Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz” [1], degan edi.

Mang‘itlar davri tarixchisi Abdulazim Somiy o‘zining asarlarida adolat, tenghuquqlilik va bag‘rikenglik xususida ma’lumotlar keltirib, bir paytlar qudratli bo‘lgan Buxoro davlati butunlay tanazzulga yuz tutishining sababi ham adolatsizlik deb hisoblaydi va o‘zining fikrini izohlash uchun mang‘it amirlarining hukmronlik davridagi bo‘lib o‘tgan voqealarni eslaydi. Masalan, Somiy Amir Muzaffar davrida adolatsizlik namoyishlari tez-tez sodir bo‘lganini. Amir Muzaffarning takabburligi va uning jilovsiz va buzuq hayot tarzi va odamlarga nisbatan shafqatsiz munosabati to‘g‘risida gapiradi. Somiyning fikriga ko‘ra, uning bunday xulqi Buxoro davlatini inqirozga olib keldi. Somiyning so‘zlariga ko‘ra, inqirozning sabablaridan yana biri – uning qo‘l ostidagi odamlarga nisbatan adolat saqlanib qolmaganligi va shu sababli davlatga “Xudoning g‘azabi” tushganligidir [2].

Musoxon Dahbediyning “Navodir ul-maorif” asarining to‘rtinchi “Dar zikri haqiqati piri va muridi” faslida ibodat va ilm olishlikda yolg‘izlikka emas, balki jamoa bo‘lishlikka targ‘ib qiladi. Musoxon Dahbediy: “Bizning tariqatimiz suhbatdur va xayriyat jamiyatdadur. Jamiyat suhbatda bu shart bilanki bir-biriga naf’ bo‘lur va agar jami bu yo‘l soliklari bir-biri bilan suhbat tutsalar, unda ko‘p xayru barokat bo‘lur”[3], deydi. Suhbat usuli, uning ta’kidlashicha, jamoa bilan birga bo‘lish, fikr almashish va hamroh tutinishni taqozo etadi. Bu usul esa, yolg‘izlik va xilvatni yoqtirmaydi va insonni hamjihatlikka da’vat etadi.

**Tahlil va natijalar.** Islom tarixi va madaniyati taraqqiyotida bag‘rikenglik masalasi asosiy tamoyillardan bo‘lib, bu borada mutasavviflar va sufiy shayxlar o‘z qarashlari va g‘oyalarini islom asoslariga tayangan holda manbalarda bayon etganlar. Islom tarixi va madaniyatining rivojlanish tarixi qo‘lyozma manbalar asosida tadqiq qilinganda “Bag‘rikenglik” tushunchasi adolat va sabr tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi asoslandi. Bag‘rikenglikning asosi – adolat ekan, jamiyatdagi qonun-qoidalar va huquqiy normalarni jamiyat a’zolari orasidagi turli din, millat hamda irq vakillari orasida birdek adolat bilan qo‘llash, boshqalarning diniy yoki ma’lum o‘zlariga xos, qonunga xilof bo‘lmagan harakat va tadbirlariga, tutumlariga chiroyli munosabatda bo‘lish, g‘azab yoki nafratni “izhor” qilmaslik tushuniladi.

Qur’oni Karimda “Adolat” tushunchasi juda ko‘p oyatlar mazmunida nozil qilingan.

Alloh Taolo إِنَّ ٱللَّهَ يَأۡمُرُكُمۡ أَن تُؤَدُّواْ ٱلۡأَمَٰنَٰتِ إِلَىٰٓ أَهۡلِهَا وَإِذَا حَكَمۡتُم بَيۡنَ ٱلنَّاسِ أَن تَحۡكُمُواْ بِٱلۡعَدۡلِۚ إِنَّ ٱللَّهَ نِعِمَّا يَعِظُكُم بِهِۦٓۗ إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ سَمِيعَۢا بَصِيرٗا

“Darhaqiqat, Alloh omonatni o‘z egalariga topshirishingiz va odamlar o‘rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizga buyurar. Albatta, Alloh sizlarga yaxshigina nasihat qilur. Albatta, Alloh eshituvchi va ko‘ruvchi zotdir”[4], deb marhamat qiladi.

Yuqoridagi oyat mazmunidan, Alloh har bir masalada adolatli bo‘lishlikni buyurgan. Bag‘rikenglik orqali turli millat va din vakillari orasida muhabbat uyg‘onadi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti, tinch-totuv hayotning muhim asosidir. Imom Daylamiydan rivoyat qilingan hadisi sharifda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Imonning afzali sabr va bag‘rikenglikdir”, deb marhamat qilganlar [5]. Ushbu hadis insonni har qanday mutaassiblikdan qaytaradi va bag‘rikenglikka chaqiradi.

Har bir din o‘z izdoshini millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, birdamlikka, o‘zaro yaxshilik qilishga undaydi. Jumladan, islom dinidagi “jamoatdan ajralmaslik”, “odamlarning yaratgan oldidagi tengligi” g‘oyasi buning yorqin misolidir. Barcha insonlar jinsi, irqi, rangi, ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay, barobar hisoblanadi. Bu haqda hadislarda: “Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar. Arabning boshqa xalqlardan, oqning qoradan, erkakning ayoldan ustunligi yo‘q. Faqat, taqvoda xolos”, deyilgan [6].

Islom dini teng huquqlilikka targ‘ib qiluvchi ta’limot ekanligi borasida ko‘p manbalarda ta’kidlangan. Masalan, mang‘itlar davri manbalarida azon va namoz masalasida ko‘p ma’lumotlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, masjidda azon chaqirilishi bilan Allohga ibodat qilmoqchi bo‘lganlar darhol to‘planishlari va ularning kim o‘zarga emas, ibodatga shosholishlari tahsinga sazovor amallardan ekanligi ta’kidlanadi. Haqiqatda, musulmonlar bir kunda besh vaqt bir safda, yonma-yon turib namoz o‘qiydi. Bir imomga iqtido qilib, ruku’ va sajda qiladi. “Islomiy tenglik namozda eng chiroyli suratda namoyon bo‘ladi” [7]. Islom dinining turli millatga mansub shaxslarni birodarlik tizimida birlashtiruvchi amaliy kuchligini boshqa ibodatlar va amallardan ham ko‘rish mumkin.

Mang‘itlar davrida insonlar o‘rtasidagi tabaqalanishga islom dini ulamolari va tariqat peshvolari qarshi bo‘lgan va mintaqadagi jamiyatni birlikka, birdamlikka chaqirgan va teng huquqlilikka da’vat qilgan. Tasavvuf ilmida va tariqatda bunday bag‘rikenglik va birdamlik asosiy g‘oya va mafkuraning negizi bo‘lgan. Bag‘rikenglik tasavvufda insonning ma’naviy kamolot sari yuksalishida va jamiyatning tinchligini ta’minlashda hamda insonlararo birodarlik ruhini yoyilishida eng asosiy tamoyillardan biri bo‘lganligini hozirgi zamon tasavvufshunoslari ham ta’kidlab o‘tmoqda [8].

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, Alloh bandalarini bir-birlari bilan tanishib, tinch-totuv va ahillikda hayot kechirishga buyurgan. Islom dining muqaddas kalomi Qur’oni karimda:

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّاسُ إِنَّا خَلَقۡنَٰكُم مِّن ذَكَرٖ وَأُنثَىٰ وَجَعَلۡنَٰكُمۡ شُعُوبٗا وَقَبَآئِلَ لِتَعَارَفُوٓاْۚ إِنَّ أَكۡرَمَكُمۡ عِندَ ٱللَّهِ أَتۡقَىٰكُمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٞ

“Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo‘ydik. Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog‘ingiz taqvodorrog‘ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir” [9], deb marhamat qilingan.

Yuqoridagi oyatning mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, insoniyatning asli bir: hamma Odam Ato va Momo Havodan tarqalgan. Ayni chog‘da, Alloh taolo ularni turli xalqlar va qabilalarga ajratib qo‘ygan. Insonlar turli xalq va qabilalarga bo‘linishining sababi o‘zaro tanishish, hamkorlik qilish va bir-birlariga nisbatan adolatli bo‘lishlikdir. Islom dini boshqa din vakillariga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatgan. Ma’lumki, Islom o‘zidan oldingi samoviy dinlarni ehtirom qilish bilan cheklanmay, o‘sha din ahllariga cheksiz muruvvat ko‘rsatgan. Ularning haq-huquqlarini qonun bilan mustahkamlab qo‘ygan. Asrlar davomida bu qoidalarga amal qilib yashagan musulmonlar oralarida yashaydigan ahli zimmaga [10] muruvvat ko‘rsatib, butun insoniyatga o‘rnak bo‘lib kelishgan. Islom ilk davridanoq sobiq dinlarga hech qanday tazyiq o‘tkazmadi, turfa mazhab va mafkuralarga qarshilik ko‘rsatmadi. Islom birinchi kunlardanoq diniy bag‘rikenglik muruvvat va tinchlikning olamshumul shiorlarini o‘rtaga tashladi, bu haqida naqshbandiya tariqatida: “barcha samoviy dinlar bir manba, bir buloqdan suv ichadi, hamma payg‘ambarlar birodardirlar, risolatda ular o‘rtasida hech qanday afzallik yo‘q, e’tiqodga, dinga majburlash mumkin emas, ilohiy diyonatlarning barcha ibodatxonalari himoya va mudofaa qilinishi kerak, dinlardagi ixtiloflar qotillik va adovatlarga sabab bo‘lmasligi, yaxshilik, silai rahmdan to‘smasligi lozim”[11], degan fikr ilgari surilgan.

Yuqoridagi fikrimizni Qur’oni karimdagi oyatlar ham isbotlaydi:

لَّا يَنۡهَىٰكُمُ ٱللَّهُ عَنِ ٱلَّذِينَ لَمۡ يُقَٰتِلُوكُمۡ فِي ٱلدِّينِ وَلَمۡ يُخۡرِجُوكُم مِّن دِيَٰرِكُمۡ أَن تَبَرُّوهُمۡ وَتُقۡسِطُوٓاْ إِلَيۡهِمۡۚ إِنَّ ٱللَّهَ يُحِبُّ ٱلۡمُقۡسِطِينَ

“Din to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar” [12].

Alloh taolo bu oyati karimada mo‘min-musulmonlarni boshqa millat va din vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lishga buyuradi va ularga nisbatan adolatli bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi. Jumladan, samarqandlik faqih Abu Lays Samarqandiy “Bahrul ulum” nomli tafsir kitobida ushbu oyat tafsirida: “O‘zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling”, deb qayd qilgan. Movarounnahrlik mashhur mufassir Abul Barakot Nasafiy “Madorikut tanzil” asarida mazkur oyat sharhida: “O‘zga din vakillariga ehtirom ko‘rsating, ularga so‘z bilan ham, ish bilan ham yaxshi muomalada bo‘ling”, deb bayon etgan.

Tasavvuf ta’limoti nazariyotchilari ham har bir kishining qaysi dinga mansubligidan qat’iy nazar, avvalo, uning insonligi uchun odamiylik nuqtai nazaridan hurmat qilish lozimligini ta’kidlagan. Mang‘itlar davri tarixchilari bag‘rikenglikni shunday izohlashgan: “Masihiylar, yahudiylar va musulmonlar hukumat ishlarida birga ishlar edilar” [13]. Bu kabi misollarni tarixchilar manbalaridan ko‘plab keltirish mumkin. Muhiddin Baqiyning “Va’z ul-ahbob” asarida ham Buxoro amirligidagi turmush tarzi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Mexmonon, sayyoxon, olimon meoyand.
Onho dilkushod va kushodadil hastand [14].

Tarjima: “Kelsalar mehmonlar, sayyohlar, ilmi toliblar.

Kutib olar bag‘rin ochib ko‘ngli ochiqlar”.

Yuqoridagi misralarda Buxoro amirligida insonlarning ko‘ngli ochiqligi, mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi tasvirlangan. Buxoro amirligida mang‘itlar davrida yashab o‘tgan olimlarning ham bag‘rikeng va mehmondo‘st bo‘lganligi shubhasiz, o‘sha davrda Buxoroga tashrif buyurgan ilm toliblarining cheki va chegarasi bo‘lmaganligi fikrimizni isbotlaydi, qolaversa, ko‘plab jahon olimlari ham bu haqida ta’kidlashadi.

**Xulosa va takliflar**. Hozirda jahonda yuz berayotgan diniy toqatsizlik holatlari boshqa din vakillariga o‘ta murosasizlik, bir din ichidagi mojaroli munosabatlar hamda dunyoviy tuzumga qarshi kurash yoki xalqaro darajadagi qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘lib turibdi. Zero, barcha dinlar qatori Islom o‘zidan avvalgi dinlarni (yahudiylik, nasroniylik) e’tirof etibgina qolmasdan, ularning madaniyat va an’analariga ehtirom bilan qarashga hamda ular bilan adolatli munosabatda bo‘lishga buyurgan. Islom doimo barcha din va e’tiqod vakillarini adolat o‘rnatishda, xavfsizlikni ta’minlashda va begunoh odamlarni qoni to‘kilishini oldini olishda hamkorlik qilishga chaqiradi.

Yurtimizda azaldan bag‘rikenglik g‘oyasi bosh mafkura bo‘lgan, hozirda ham O‘zbekiston hukumati odilona, diniy bag‘rikenglik siyosatini olib bormoqda. Respublikada islom bilan bir qatorda 17 ta diniy konfessiya erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. Fuqarolarning millati, dini, irqidan qat’iy nazar barcha uchun teng huquqlar qonun orqali kafolatlangan. Ma’lumki, millatlararo munosabatlar millatlar, etnik guruhlarning o‘zaro va turli millat vakillarining shaxslararo aloqasi, munosabatidek ikki shaklda mavjud bo‘ladi. Millatlararo munosabatdagi barqarorlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, millatlararo munosabatlarning tenghuquqlilik, o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamkorlikka asoslangan o‘ziga xos holati – millatlararo totuvlik qaror topganini alohida qayd etish lozim, boshqacha qilib aytganda, oqilona tashkil etilgan milliy siyosat natijasida muayyan kuchlar alanga olishidan manfaatdor bo‘lgan, mustabid tuzum davrida darz keta boshlagan etnik munosabatlar istiqlol tufayli mutlaqo yangi asosda rivoj topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh assambliyasining 72-sessiyasida yuksak minbardan turib, sessiya ishtirokchilariga «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi bilan chiqdilar. Ushbu rezolyusiyaning qabul qilinishi diniy erkinlikni ta’minlash, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat [15]. Xulosa qilib aytganda, bugungi tinchlik va taraqqiyotimiz ko‘p millatli O‘zbekiston jamiyatining bag‘rikengligi asosida jamiyatda totuvlikka asoslangan xalqparvar siyosat tantanasidan dalolatdir. O‘nlab diniy konfessiyalarning faoliyati O‘zbekiston xalqining bag‘rikenglik, tinchlik va totuvlikka moyilligidan guvoh bo‘lib, madaniyatlararo muloqot konsepsiyasining tantanasi ushbu jamiyatda o‘zining to‘liq isbotini topganligini bildiradi.

## ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. БМТнинг 72-сессиясида сўзлаган нутқидан. 2017 йил 20 сентябрь. АҚШ.
2. Мирзо Абдулазим Сомий Бўстоний. Тарихи салотини манғития. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси, инв. № 4330/VI. 112 а.
3. Мусохон Даҳбедий. Наводир ул-маориф. Бухоро давлат музей қўриқхонасида № 27806/11. 164-бет.
4. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси - Ўзбекча таржима, таржимон: Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Нисо сураси, 58-оят.
5. Минг бир ҳадис. – Т. I. / Арабчадан Абдулазиз Мансуров таржимаси. Т.: Ўзбек маскани, 1991, 80-бет.
6. Маърифат зиёси / Таҳрир ҳайъати: А. Мансур, И. Усмонов. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2015, 21-бет.
7. Мусохон Даҳбедий. Наводир ул-маориф. Бухоро давлат музей қўриқхонасида № 27806/11. – 242 а-бет.
8. Necdet Tosun. Türkistan dervişlerinden yadigar (Orta Asya Türkçesyle yazılmış tasavvuf eserler). –Istanbul. 2011, 86-бет
9. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси - Ўзбекча таржима, таржимон: Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳужурот, 13.
10. Аҳли китоблар назарда тутилган.
11. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009, 191-бет.
12. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси - Ўзбекча таржима, таржимон: Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мумтаҳана, 8.
13. Абдулазим Сомий. Дахмаи шоҳон. Бухоро музейи қўлёзмаси, инв.№ 23720/11. –84-бет.
14. Муҳиддин Бақий. Ваъз ул-Аҳбоб. Бухоро давлат музей қўриқхона қўлёзмаси, №29101/11. –126 а-бет.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрдаги БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи / «Халқ сўзи» 2017 йил 20 сентябрь, № 189 (6883).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:940.53/54 (045)

*Ismoil SALOMOV,*
*QarDU doktoranti*
*E-mail: Ismoilsalomov6661@gmail.com*

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti, t.f.d(DSc) Ch. Temirova taqrizi asosida*

## DEVELOPMENT OF NATURAL AND AGRICULTURAL SCIENCES IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR

Annotation
In this article, you will get acquainted with the activities of scientific research institutes specializing in natural and agricultural sciences that operated in the system of the Academy of Sciences of Uzbekistan during the Second World War, their development directions, and the scientific achievements made by these institutes.
**Key words:** Academy of Sciences of Uzbekistan, Research Institute, Chemistry, Zoology, geology, Botanical Garden, Water Management, mines, metals, hydrogeological map, tablet, soil, cotton.

## РАЗВИТИЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ НАУК В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация
В этой статье вы познакомитесь с деятельностью научно-исследовательских институтов естественных и сельскохозяйственных наук, действовавших в системе Академии наук Узбекистана в годы Второй мировой войны, направлениями их развития, а также научными достижениями, достигнутыми ими. институты.
**Ключевые слова:** Академия наук Узбекистана, научно-исследовательский институт, химический, зоологический, геологический, ботанический сад, водное хозяйство, месторождения, металлы, гидрогеологическая карта, планшет, почва, хлопководство.

## IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI RIVOJI

Annotatsiya
Ushbu maqolada siz Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat yuritgan tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatlari va ularning rivojlanish yo‘nalishlari, ushbu insitutlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy yutuqlar bilan tanishasiz.
**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot instituti, kimyo, zoologiya, geologiya, botanika bog‘i, suv xo‘jaligi, konlar, metallar, gidrogeologik xarita, planshet, tuproq, paxtachilik.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi SSSR va uning tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston SSRda ko‘pgina qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Avvalo, iqtisodiyot va ilm-fan juda katta bosim ostida qolganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi, ilmiy soha vakillariga ham front uchun zarur bo‘lgan mavzular va ilmiy-tadiqiqot ishlari bilan shug‘ullanish vazifasi topshirildi. Olimlar oldida front uchun dolzarb muammolarni o‘rganish va ularga yechim topish, mahalliy tabiiy boyliklarni maksimal darajada o‘rganish, kamyob foydali qazilmalarni qazib olish texnologiyalarini takomillashtirish, mahalliy materiallardan yuqori darajada foydalangan holda chetdan keltiriladigan har qanday xomashyo o‘rnini qoplash birlamchi vazifa sifatida belgilab berildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ikkinchi jahon urushi yillarida Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyat yuritgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati haqida D. Alimova va U. Abdurasulovlar o‘zlarining “Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана” nomli monografiyasida to‘xtalib, Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyat yuritgan ba’zi ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati haqida so‘z yuritishgan[1]. E. Abdurahmonovning “O‘rta Osiyo Respublikalari olimlarining frontga qo‘shgan hissasi” nomli risolasida urush sodir bo‘layotgan bir sharoitda O‘zbekistonda fan tarmoqlari qanday rivojlanganligi, O‘zFA faoliyati va uning tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlari haqida qisman so‘z yuritadi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy obyektivlik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi. Tadqiqotni amalga oshirishda arxiv manbalari, davriy nashrlar, mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar sinchkovlik bilan tahlil qilinib, mavzuga doir ma’lumotlar maqolada keltirildi.

**Tahlil va natijalar.** Respublika ilmiy-tadqiqot muassasalarining yanada o‘sishi 1940 yil 9 yanvarida O‘zbekiston SSR Fanlar qo‘mitasi SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali (O‘zFAN)ga aylantirilishiga sabab bo‘ldi. 1943 yil 4 noyabrda esa O‘zFAN negizida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasini tashkil etilishi o‘sha davrda eng muhim va ustuvor vazifa bo‘lgan front ehtiyojlari uchun yangi resurslarni topish va ozod qilingan hududlar iqtisodiyotini tiklashga yordam berish, O‘zbekiston iqtisodiyoti, ta’limi va madaniyatini yanada rivojlantirish imkoni berdi[3].

Birinchi navbatda urush yillarida dolzarb muammo hisoblangan xom ashyo muammosini va energetika muammosini hal qilish uchun asosiy e’tibor geologik qidiruv ishlariga qaratildi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda tabiiy fanlar tarmog‘ida salmoqli ishlar amalga oshirilganligi ta’kidlab o‘tish joiz. 1941 yildayoq O‘zFAN Geologiya ilmiy-

tadqiqot instituti O‘zbekistonda mahalliy metallurgiya ishlab chiqarishini yaratish uchun xomashyo bazalarini aniqlash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdi. Prof. A.S. Uklonskiyning neft bilan paragenezda oltingugurt konlarining genezisi masalasiga bag‘ishlangan nazariy ishi diqqatga sazovor bo‘ldi, prof. A.V. Korolev - ruda konlari tuzulishlarini o‘rganish usullari bo‘yicha, xususan, eng yirik Olmaliq mis ruda konining geokimyosi va metallogeniyasi bo‘yicha, prof. O.K. Lange – O‘zbekiston gidrogeologiyasi masalalari bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari e’tiborga molik ishlar sirasiga kiradi [4].

Turangli hududida bir guruh temir rudasi konlarining ochilishi, Angren havzasi va O‘zbekistonning boshqa hududlarida qalay rudalari, shuningdek, qimmatbaho metallar konlarini qidirish katta sanoat ahamiyatiga ega bo‘ldi [5]. O‘zbekiston geologlari O‘rta Osiyo respublikalari olimlari bilan birgalikda qalay, volfram, molibden, nodir metallar, neft, ko‘mir, o‘tga chidamli materiallar, gil, qum, shag‘al va boshqa ko‘plab turdagi xom ashyoning yangi konlarini kashf etdilar [6]. 1943 yilda Davlat ittifoqi geofizika trestining O‘rta Osiyo bo‘limi tashkil etildi va bu O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga neft va gaz qazib olishda istiqbolli viloyatlarning hududiy geologik tuzilishini o‘rganish hamda kompleks geofizikaviy ishlarni amalga oshirishda katta yordam berdi [7]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi A.S. Uklonskiy O‘zbekiston va O‘rta Osiyodagi ayrim temir ruda konlarining mineralogiyasi va geokimyosini o‘rgandi. Tadqiqotlar natijasida temir geokimyosiga oid fundamental ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator nazariy masalalar ishlab chiqildi [8]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi geologiya instituti, O‘zbekiston geologiya boshqarmasi, O‘rta Osiyo industrial instituti va Butunittifoq alyuminiy-magniy institutining O‘rta Osiyo filiali mutaxassislarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan Toshkent tumani, Janubiy O‘zbekiston, Farg‘ona va Boysunning alyuminiy ruda konlarini o‘rganish bo‘yicha kompleks ishlar amalga oshirildi, bu esa qurilayotgan alyuminiy zavodlari uchun asos yaratdi [9].

O‘zbekistonning o‘z metallurgiya bazasini tuzish tashabbuskorlaridan biri, Ukraina FA muxbir a’zosi, prof. V.E. Vasilev bu muammoni hal etish uchun bor imkoniyatini ishga soldi. Uning ishtirokida O‘rta Osiyo sanoat instituti qoshida O‘zbekistonda birinchi metallurgiya zavodini loyihalashtirish bo‘yicha jamoatchilik byurosi tuzildi. Loyihaning bosh injeneri sifatida Vasilev loyihaning asosiy mexanizmlarini ishlab chiqdi. Prof. V.E. Vasilev mahalliy rudalardan mis quyish texnologiyasini ishlab chiqdi, shuningdek, korxonalarga metallarning zanglashiga qarshi kurashda va boshqa masalalarda texnik yordam ko‘rsatdi [10]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston geologiya boshqarmasi, “Sredaznefterazvedka”, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Butunittifoq neft ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan keng ko‘lamli geologik qidiruv va burg‘ulash ishlari natijasida Farg‘ona viloyatida neft qazib olish hajmi oshdi, Janubiy O‘zbekistonning neft zaxiralariga ega tumanlari, G‘arbiy Buxoro va Toshkent tumanlarida o‘rganish ishlari kuchaytirildi [11].

O‘zbekiston gidrogeologiya boshqarmasi tomonidan 1944 yil iyul oyigacha O‘zbekistonning yig‘ma gidrogeologik xaritasini tuzish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonning qadimiy va hozirgi konlarining geologik-mineralogik xaritalarining 31 ta plansheti tuzilgan bo‘lib, ular yig‘ma gidrogeologik xaritaga asos bo‘ladi. Ushbu xarita uchun 4 ta planshet ham allaqachon tayyorlab bo‘lingan. Xaritani tuzish ishlarida T. Beder rahbarligidagi jamoa faoliyat olib bormoqda. Xaritalarni tuzish ishiga professor Semixatov, biologiya va mineralogiya fanlari nomzodlari Vasilkovskiy, Seversov, Shmidt, Dmitriyev va boshqalar jalb qilindi. Gidrogeologik xaritani tuzish 1945 yilda tugallanishi reja qilingan [12]. 1944-1945 yillarda Qoraqalpog‘istonda tabiiy resurslar va ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganish bo‘yicha keng jabhada ishlar boshlandi [13]. Jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Amudaryo deltasiga ekspeditsiya uyushtirdi. 1945 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti V.V. Poslavskiy boshchiligidagi maxsus guruh Amudaryo deltasida suv toshqinlariga qarshi kurash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqdi [14].

O‘zFAN Kimyo ilmiy-tadqiqot instituti 1940 yilda mahalliy O‘zbekiston sanoat instituti negizida tashkil etilgan. Yangi kimyo institutida bir qator laboratoriyalar tashkil etilishi orqali ilmiy-ishlab chiqarish bazasi mustahkamlandi, faoliyat ko‘lami, ish mazmuni hamda chuqur ilmiy izlanishlar bo‘yicha sezilarli darajada o‘sishlar kuzatildi. Institutning ushbu sohadagi katta yutug‘i "O‘zbekiston florasi" ko‘p jildli asarini nashr etishi bo‘ldi. Nashr O‘zbekistonning ilmiy va iqtisodiy ahamiyati katta bo‘lgan o‘simlik resurslarini to‘liq inventarizatsiya qilishni asosiy maqsad qilib belgiladi [15]. Dori-darmonlarni olish uchun Kimyo institutida bir qancha tajribalar muvaffaqiyatli o‘tkazilib, yodidlar va bromidlar ishlab chiqarishga erishildi. Erishilgan natijalar institut hududida yangi dori vositalarini ko‘p miqdorda ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba zavodini tashkil etishni boshlash imkonini berdi [16].

O‘zFAN Zoologiya sektori xodimlari qo‘y va echkilarning eng xavfli paraziti – qo‘y pashshalariga qarshi kurashda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu lichinkalarning zarari shundaki, qo‘ylarning ozib ketishidan tashqari, ular qo‘zilar rivojlanishida nuqsonlarni vujudga keltiradi, bu ko‘pincha hayvonning o‘limi bilan yakunlanadi va har xil infeksiyalarning rivojlanishiga yordam beradi. 1942 yil boshida Samarqandda qishloq xo‘jaligida jamoat chorvachiligi mahsuldorligini oshirishda amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ilm-fan xodimlari harbiy jihatdan qayta qurishda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga amaliy yordam ko‘rsatdilar.

Bu borada O‘zFA Botanika va tuproqshunoslik institutida katta ishlar amalga oshirildi. Institutda tuproq tadqiqotlari asosida ikki jildlik “O‘zbekiston tuproqlari” (N.Kimberg, M.Pankov, S.Shuvalov) nomli yirik monografiya yaratildi, monografiya bu yo‘nalishdagi ilk jamlangan ish bo‘lib, o‘lkaning o‘ziga xos xususiyatlariga batafsil tavsif berdi [17]. 1943 yilda olimlar lalmikor dehqonchilikni kengaytirish va don ekinlari hosildorligini oshirish, Mirzacho‘lni tadqiq etish va rivojlantirish, Janubiy Xorazm yerlarining meliorativ holati masalalari bilan shug‘ullandilar [18].

1943 yil sentabr oyiga kelib, F. Rusanov boshchiligidagi O‘rta Osiyo davlat universiteti qoshidagi Toshkent botanika bog‘ida boshoqli ekinlar orasida tolali va kraxmalli gigant liana pueraria o‘rganilmoqda. Xitoyda plashlar Pueraria po‘stlog‘idan tayyorlanadi, bizning mamlakatimizda undan o‘simlik sifatida, qolaversa uning po‘stlog‘idan xom ashyo sifatida qo‘llanilishi kerak. Bu o‘simlikning O‘zbekiston tabiati uchun eng katta yutug‘i − uning shaharni yashillashtira olish qobiliyatidir. 1 ta katta 3-4 yoshli o‘simlik katta choyxonani to‘lig‘icha qoplab olishi mumkinligi aniqlandi. 1941-1943 yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti Botanika bog‘ining ilmiy xodimlari jamoasi gibiskuslarda qatorlararo duragaylash bo‘yicha intensiv ish olib borishdi. Natijada yirik poyali duragaylar paydo bo‘ldi, ular boshoqli o‘simliklar sifatida katta qiziqish uyg‘otadi. Ushbu o‘simliklar bilan birga O‘zbekiston shaharlarini va SSSR janubini ko‘kalamzorlashtirish mumkin. Bog‘ tadqiqotchilari boshoqlilar guruhidan tarkibida katta kraxmal zaxirasi bo‘lgan yams (3 metrgacha o‘sishi mumkin va janubiy hududlar uchun qulay o‘simlik) o‘simligini

o‘rganishdi. Chiqchiq vodiysi bu o‘simlik uchun qulayligi aniqlandi [19].

Xorazm viloyatida maxsus ekspeditsiya tashkil etilib, guruh tomonidan uch oy mobaynida tuproqlar tarkibini o‘rganish ishlari olib borildi. Tuproq o‘rganish ishlari hudud yerlarining meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan [20].

Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan paxta zararkunandalariga qarshi kurashuvchi yangi dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish loyihasi ishlab chiqilib, aniq tavsiyalar berildi. Olimlar tomonidan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarni yaxshilash, bu orqali qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun barqaror shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Olimlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan respublika suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratdilar. Qashqadaryo viloyatining cho‘lli hududlarida, Kitob va Shahrisabz tumanlarida, Xorazm viloyatida yirik meliorativ ishlar amalga oshirildi [21].

1944 yil sentabr oyida O‘zbekistonda 3 yilga yaqin bo‘lgan I. V. Stalin nomidagi un sanoati va elevator xo‘jaligi muhandislari instituti Toshkentdan Odessaga qaytishi rejalashtirildi. Shu qisqa vaqt ichida institut sovet Ittifoqining un va don sanoati hamda elevator xo‘jaligi korxonalarida ishlaydigan 180 dan ortiq muhandislarni tayyorlab berdi. 1943−1944−o‘quv yilida institutni bitirganlar vayron bo‘lgan korxonalarni tiklash va boshqarishda ishtirok etish uchun dushmanlardan ozod qilingan hududlarga yuborildi. Institut kafedralari tomonidan bir qator jiddiy ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilib, O‘zbekiston un sanoatiga katta yordam ko‘rsatildi. Tegirmon mashinalari nazariyasi va konstruksiyalari kafedralari (kafedra mudiri dotsent Demidov), un ishlab chiqarish texnologiyasi kafedrasi (kafedra mudiri dotsent Barer) va elevator-ombor xo‘jaligi kafedrasi (kafedra mudiri dotsent Levyatin) tomonidan amalga oshirilgan maxsus ilmiy ishlar urush davrida yuzaga kelgan ishlab chiqarish muammolarini hal etishda O‘zbekiston sanoatiga amaliy yordam ko‘rsatishga qaratilgan edi. Respublika don resurslarini ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston tomonidan don ekinlarini qayta ishlash texnologik jarayonini o‘zlashtirish masalasini hal etishga katta e’tibor qaratildi. Institutning maxsus kafedrasida birinchi navli bug‘doy unining standartligini ta’minlash masalalari ham ko‘rib chiqildi. Bu masala dotsentlar Ostrozetser va Demidov tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda hal qilindi. Tegirmon mashinalari nazariyasi va konstruksiyasi kafedrasi O‘zbekiston sharoitlariga moslab kolxoz tegirmoni loyihasini ishlab chiqdi. Institut un ishlab chiqarish sohasida O‘zbekistonda keng ko‘lamli amaliy ishlarni bajardi [22].

1944 yil 17-oktabr kuni O‘zSSR Fanlar akademiyasi majlislar zalida Lenin nomidagi Butunittifoq qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi va O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi xalq komissarligi tashabbusi bilan ilmiy sessiya o‘z ishini boshladi. Sessiyada ishtirok etish uchun Moskvadan qishloq xo‘jaligi fanlari Akademiyasining chorvachilik bo‘limi boshlig‘i akademik E.F. Liskun, Timiryazev nomidagi qishloq xo‘jaligi akademiyasining professorlari E.Y. Borisenko va V.O. Vitt, SSSR Xalq komissarligi yilqichilik bosh boshqarmasi boshlig‘i L.V. Koshtanov, Butunittifoq yilqichilik ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti I.I. Laktoza va G.G. Karlsonlar tashrif buyurishdi. Turkmaniston, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan O‘rta Osiyo respublikalaridan 10 nafar delegat keldi. Sessiyadan ko‘zlangan maqsad chorvachilikning eng qoloq tarmoqlarida, xususan, xachirchilik, qoramolchilik va tuyachilikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish va bu masalalarga davlat organlari e’tiborini jalb qilishdan iborat. Dotsent Y.L.Barmintsevaning ma’ruzasida Rossiya Federatsiyasining janubiy sharoitlari bilan bog‘liq holda tuyachilikni rivojlantirish masalalari ko‘tariladi. Uning fikrlari Qirg‘iziston Qishloq xo‘jaligi xalq komissarining o‘rinbosari K.P. Chishkinning O‘rta Osiyo respublikalari sharoitida tuyachilik to‘g‘risidagi ma’ruzasi bilan to‘ldirildi [23].

O‘zFAN Suv xo‘jaligi muammolari ilmiy-tadqiqot instituti o‘z oldiga O‘zbekiston tabiiy resurslarini rivojlantirish muammolari nuqtai nazaridan sug‘orish va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini o‘rganish vazifasini qo‘ydi. Institutda “Sirdaryo havzasidan kompleks foydalanish sxemasining ilmiy asoslari” va “O‘zbekiston elektr energetikasi va energetika resurslari” mavzulari ishlab chiqildi. O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirish energetika masalalarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy markaz yaratish vazifasini qo‘ydi. Bu masala ijobiy hal etildi: 1941 yilda Suv xo‘jaligi muammolari ilmiy-tadqiqot instituti negizida O‘zFAN energetika instituti (hozirgi Energetika instituti) tashkil etilib, tez orada O‘zbekiston uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator yutuqlarga erishildi.

1944-1945 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Energetika instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, O‘rta Osiyo sanoat instituti va boshqa muassasalar mutaxassislarining sa’y-harakatlari O‘zbekistonda energetikani rivojlantirish masalalarini o‘rganishga, energiya resurslaridan foydalanish, O‘zbekiston daryolari va kanallarining suv xo‘jaligi va energetika xususiyatlaridan gidrostansiya qurilishida foydalanish, shuningdek, irrigatsiya tizimlarini loyihalashda suv resurslaridan kompleks foydalanish masalalarini o‘rganishga e’tibor qaratildi [24].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekistonda tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari anchagina rivoj topdi. Sanoatda muhim hisoblangan energetikaga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida tabiiy resurslarni imkon qadar ko‘proq o‘rganish, qishloq xo‘jaligi uchun dolzarb bo‘lgan tuproq unumdorligini oshirish, o‘simliklarni chatishtirish usuli bilan mahalliy iqlimga mos bo‘lgan o‘simliklar yaratish, suvdan oqilona foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish va shunga o‘xshash davr bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yechimi topilganligi tahsinga sazovordir. Ushbu sohalarda qo‘lga kiritilgan har qanday ilmiy yutuqlar, birinchidan, mahalliy ehtiyojlarni qondirish, ikkinchidan, frontni birlamchi mahsulotlar bilan ta’minlash imkonini berdi.

## ADABIYOTLAR


1. Алимова Д.А., Абдурасулов У.А. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. Монография. – Ташкент., 2012. –231 b
2. Abdurahmonov E. O‘rta Osiyo Respublikalari olimlarining frontga qo‘shgan hissasi. –T., “Fan”, 1990. –47 b
3. Правда Востока. 4 ноября 1943 г.
4. Попов В. И. Геология // 25 лет советской науки в Узбекистане. Сборник. Ташкент: Фан, 1942. С. 161
5. Правда Востока. 1942. 28 февраля
6. Алимова Д.А., Абдурасулов У.А. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана. Монография. – Ташкент., 2012 г. Ст-64
7. Наука в Узбекистане. Естественные науки. Т. I. С. 407

8. ЦГА РУз, ф. 743, оп. 3, д. 678, л. 7
9. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 17, л. 49
10. Abdurahmonov E. O‘rta Osiyo respublikalari olimlarining frontga qo‘shgan hissasi. –T., “Fan”, 1990. 21-bet
11. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 17, л. 49
12. Правда Востока. 25 июня 1944 г. № 145 (6500), ст-46
13. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). Т. III. Победоносное завершение войны. Ташкент: “Фан”, 1985. - С. 160
14. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 1436, л. 18
15. Рахимбеков Р.У. Отечественная экологическая школа: история её формирования и развития. Ташкент: Шарк, 1995. – 252 с
16. Архив Аппарата Президента Республики Узбекистан (далее – ААП РУз), ф. 58, оп. 17, д. 912, л. 22
17. ААП РУз, ф. 58, оп. 19, д. 35, л. 24
18. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 669, л. 72
19. Правда Востока. 29 сентября 1943 г. №202 (6290), ст-48
20. Правда Востока. 30 мая 1943 года. № 114 (6202), ст-37
21. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 17, л. 53
22. Правда Востока. 17 сентября1944 г. № 184, ст-43
23. Правда Востока. 18 октября 1944 г. № 207(6562), ст-68
24. ЦА АН РУз, ф. 1, оп. 1, д. 678, л. 54

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 904: 502.8 (584:4)

*Muxabbat XAMIDOVA,*
*O‘zMU professori v.b., t.f.d.*
*E-mail:hamidova.2002@mail.ru*

*O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik D.Yusupova taqrizi asosida*

## TEMURIYLAR DAVRINING QASHQADARYO VOHASIDAGI ME’MORIY OBIDALARI TARIXIDAN

Annotatsiya

Mazkur maqola XIV–XV asrlarda Amir Temur va Temuriy hukmdorlar tomonidan alohida e’tibor qaratilgan Qashqadaryo vohasi markaziy shaharlari: Shahrisabz va Qarshida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tarixini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada Temuriy hukmdorlar tomonidan ushbu shaharlarda qurilgan tarixiy inshoonlarning betakror namunalari qurilish tarixi yoritilib, o‘ziga xos qurilish uslubi, boy me’moriy bezaklariga tarixiy faktlar asosida ta’rif berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qashqadaryo vohasi, Kesh, Shahrisabz, Nasaf, Qarshi, XIV–XV asrlar me’morchiligi, Temuriylar davri me’moriy yodgorliklari, me’moriy uslub, me’moriy bezaklar, tarixiy an’analar, tarixiy yodgorliklar, Oqsaroy, Dor-ut-tilovat va Dor-us-saodat me’moriy majmualari, Jahongir Mirzo maqbarasi, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Ko‘k gumbaz masjidi.

## ИЗ ИСТОРИИ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА ТЕМУРСКОГО ПЕРИОДА

Аннотация

Данная статья посвящена освещению истории созидательных работ Амира Темура и тимуридских правителей в центральных городах Кашкадарьинского оазиса: Шахрисабзе и Карши в XIV–XV веках. В статье освещена история строительства уникальных образцов памятников архитектуры, построенных правителями Тимуридов в этих городах, а также на основе исторических фактов описан их уникальный стиль строительства и богатое архитектурный декор.

**Ключевые слова**: Кашкадарьинский оазис, Кеш, Шахрисабз, Насаф, Карши, архитектура XIV–XV веков, архитектурные памятники периода Тимуридов, архитектурный стиль, архитектурные украшения, исторические традиции, исторические памятники, Аксарай, Архитектурные комплексы Дар-ут-тиловат и Дор-ус-саодат, Мавзолей Джахангира Мирзы, Мавзолей Шамсиддина Кулола, мечеть Кок гумбаз.

## FROM THE HISTORY OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE TEMURID'S ERA IN KASHKADARYA OASIS

Annotation

This article is dedicated to highlighting the history of construction works carried out in the central cities of the Kashkadarya oasis: Shahrisabz and Karshi, which were paid special attention by Amir Temur and Timuridrulers in the XIV–XV centuries. The article describes the construction history of unique examples of historical buildings built by The Timurid rulers in these cities, and describes their unique construction style and rich architectural decorations.

**Key words:** Kashkadarya oasis, Kesh, Shakhrisabz, Nasaf, Karshi, architecture of the XIV–XV centuries, architectural monuments of the Timurid era, architectural style, architectural decorations, historical traditions, historical monuments, Aksaray, Dar-ut-tilovat and Dar-us-saadat architectural complexes, The Jahangir Mirza mausoleum, The Shamsiddin Kulol mausoleum, The Ko‘k gumbaz mosque.

**Kirish.** Milliy madaniy merosning e’tiborga molik qismi bo‘lgan O‘zbekiston me’moriy yodgorliklari tarixi hududlar kesimida va xronologik davrlashtirish asosida hanuz to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa mazkur masalaga doir yangi tadqiqotlarni olib boorish zarurati va dolzarbligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu maqola Qashqadaryo vohasining Amir Temur va Temuriylar davri me’moriy obidalari tarixini alohiga mavzu doirasida yoritishga e’tibor qaratildi.

Ma’lumki, Amir Temur va Temuriylar sulolasi ona zamini bo‘lmish Qashqadaryo vohasi shaharlarini kengaytirish, rivojlantirish, ularda yangi binolar barpo etish hamda mudofaa imkoniyatlarini mustahkamlashga hukmdorlar tomonidan alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, bu davrda Kesh va Qarshi shaharlarida olib borilgan bunyodkorlik ishlari e’tiborga molikdir. Temuriylar davrida vohaning markaziy shahrlarida bunyod etilgan me’moriy obidalar tarixini o‘rganish hamda ularning hozirgi kundagi holatini aniqlash, ushbu davr me’morchiligi an’analarini Qashqadaryo vohasi tarixiy inshootlari misolida yoritib berilish milliy madaniy merosimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hududlararo qiyosiy tahlil etish, ularni yanada chukurroq tadqiq qiishda muhim ahamiyat egadir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Temuriylar davrida Qashqadaryo vohasi markaziy shaharlari, xususan, Kesh va Qarshida bunyod etilgan inshootlar tarixiga doir ma’lumotlar ko‘plab yozma manbalarda saqlanib qolgan[1]. Ushbu tarixiy manbalar mazkur yodgorliklarning bunyod etilishiga guvoh bo‘lgan tarixchi olimlar, o‘z zamonasining ziyoli qatlami tomonidan yozi qoldirilgan bo‘lib, ma’lumotlarining ishonchliligi hamda ilmiy asoslanganligi bilan qimmatlidir. Maqola mavzuga doir tarixiy (yozma va moddiy) manbalar hamda mavzuda doir ilmiy-tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili asosida tayyorlandi[11-12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tahlil etilayotgan masala tarixiylik va ilmiylik tamoyillari asosida xolis ilmiy yondashuv asosida, yozma hamda moddiy manbalar, mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil etilgan holda, asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada keltirilgan tarixiy materiallar, xususan,

XIV–XV asrlarda Movarounnahr me’morchiligi tarixi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tadqiqot usullaridan foydalangan holda tahlilga tortilgan.

**Tahlil va natijalar.** Amir Temurning ona shahri Shahrisabz o‘sha davrlarda Kesh deb nomlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, bahorda Kesh viloyatining sahro-yu shaharlari, dala-yu bog‘lari yam-yashil bo‘lgani uchun uni Shahrisabz ya’ni “yashil shahar”, deb ham atashgan[2]. Shahrisabz asrlar davomida bir necha bor yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirgan. Ushbu shahr qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Kitob shahri o‘rnida joylashgan, vaqt o‘tishi bilan u hozirgi Shahrisabz atrofiga ko‘chgan. IX–XII asrlarda bu yerda bir qator ijtimoiy inshootlar va turar joylar qurila boshlagan [5]. Jumladan, manbalarida kltirilishicha eski shahriston qa’lasi vayrona ahvolda bo‘lgan. Bu yerda zindon va jome’ masjidi saqlanib qolgan. Eski shahar tashqarisida yangi inshootlar qurilgan bo‘lib, shahar hokimi saroyi va bozor ham shu yerda joylashgan. Shaharning mudofaa devori bilan o‘rab olinishi va yanada mustahkamlanishi Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. Shahrisabz bu davrda aniq rejali, baland himoya devori va mustahkam minoraga ega shahar bo‘lgan. Kesh hisori devorining qurilishi 780/1378 yili boshlangan va bir yilda tugatilgan. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi devorning to‘rt tomonida darvozalari bo‘lgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur Hirotni zabt etganida uning temir qoplangan darvozalarini Shahrisabzga keltirib, shahar devoriga o‘rnatishni buyurgan. O‘rta asr shaharlarida an’anaga aylangan shoh ko‘chalarga bo‘lgan e’tibor bu yerda ham kuzatiladi. Boshqa markaziy shaharlarda bo‘lgani kabi mudofaa devorlari darvozalaridan boshlangan asosiy yo‘llar markazda kesishgan. Yo‘l yoqasida joylashgan do‘konlar markazga tomon ko‘payib borgan va u yerda asosiy bozor – *Chorsu*ga tutashgan. Hozirgacha saqlanib qolgan Shahrisabz chorsu bozori esa ancha keyinroq qurilgan va o‘sha paytdagi markazdan chetroqda joylashgan. Hisorning janubi-sharqida Temuriylar davrining betakror inshooti *Oqsaroy* bunyod etilgan. Uning qarshisida esa aslzodalar va din peshvolari istiqomat qilgan mahallalar, shaharning janubi-g‘arbiy qismida hunarmandchilik guzarlari joylashtirilgan. Hisor atrofidagi rabotlarda kanallar bo‘ylab bunyod etilgan bog‘-rog‘lar uzumzorlarga tutashib ketgan. Bu manzara voha me’morchiligi va amaliy san’ati namunalari bezaklarida ham o‘z aksini torganini ko‘rish mumkin. Xususan, Shahrisabzda bunyod etilgan mahobatli inshootlar qurilishi, ularning tuzilishi, qurilmalari va me’moriy bezaklarida vohaning o‘ziga xos tabiiy shart-sharoitlari e’tiborga olingan.

*Oqsaroy* Amir Temur farmoniga ko‘ra, 1380–1403 yillarda qurilgan bo‘lib, tarixiy manbalarda ushbu saroy haqida ko‘plab qiziqarli tarixiy faktlar yozib qoldirilgan. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Torix yetti yuz sakson birda (1380, mart) ul shaharda (Keshda) qal’a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo‘ldikim, gardun muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir yerda mundoq shahar va ko‘shk ko‘rmagan tutur” [7]. Hozirda Oqsaroyning bosh ravoq ustunlarigina saqlanib qolgan. Inshootning qurilishida mahalliy ustalar bilan birga Amir Temurning Urganch va Ozarbayjonga qilgan yurishlari paytida asir olingan ustalar ham qatnashganlar. Binoning tashqi bezaklari, xususan, bosh ravoq ustunlari, burchak minoralari rang-barang sirli g‘isht, o‘yma naqshli koshinlar, islimiy bezakli sopol taxtachalar bilan bezatilgan.

Amir Temur saroyida bo‘lgan ispan elchisi Klavixoning Shahrisabzdagi Oqsaroyga bergan ta’rifi ham o‘ziga xosdir. Uning yozishicha Oqsaroy “...oltin, lojuvard va boshqa rangdor bezaklar bilan bezatilgan betakror inshoot, u uch qismdan, ya’ni, ma’muriy boshqaruv qismi (qabulxona), turar joy xonalari bo‘lgan saroy hamda bog‘ xiyobonidan iborat bo‘lgan[4]. Yodgorlikni chuqur tadqiq etgan mutaxassislarning fikriga ko‘ra, saroy an’anaviy tarzda to‘g‘ri to‘rtburchakli ayvonlar bilan o‘ralgan hovlida qad ko‘targan. Saroy hovlisining eni 120-125 m, uzunligi esa 240-245 mni tashkil etgan. Amir Temur saroylari o‘z davrining eng muhtasham inshootlaridan biri bo‘lib, ularni qurishda nafaqat mahalliy me’morlar balki u zabt etgan barcha hududlardan ko‘chirib kelingan usta-hunarmandlar mahorati aks etgan. Ushbu yodgorliklar bizgacha to‘liq yetib kelmagan, ammo ularning saqlanib qolgan qismlarini tadqiq etish mazkur inshootlarning mukammal qurilish uslubi, qurilish tarhi, betakror bezaklari va mahobatli ko‘rinishi to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ma’lumki, mazkur davr me’moriy obidalari nafaqat ulkan hajmi, balki boy me’moriy bezaklari bilan ham mashhurdir.

Shahrisabzning Temuriylar davriga oid yana bir tarixiy yodgorligi ***Dor ut-tilovat me’moriy majmuasi***dir. Ushbu me’moriy majmua XIV asr oxiri–XV asr boshlarida bunyod etilgan. Yodgorlik Ko‘k gumbaz masjidi, Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon mozori masjidini o‘z ichiga olgan. Dor ut-tilovatning umumiy maydoni 500X500 m bo‘lib, kvadrat shaklidadir. Shahrisabz shahrining janubi-sharqiy qismida joylashgan mazkur me’moriy majmuaning dastlabki shakllanish bosqichi XI–XII asrlarga borib taqaladi. Amir Temur davrida avval vayron etilgan obidalar o‘rnida masjid, madrasa va Shayx Shamsiddin Kulol mozori ustida maqbara bunyod etgan.

Kesh shahrining tarixiy manzarasiga guvoh bo‘lgan Klavixo shahar va Dor ut-tilovat majmuasi haqida quyidagilarni keltirib o‘tgan: “Kesh hamma yog‘idan sug‘orish inshootlari kesib o‘tgan, daraxtlar bilan qoplangan yashil tekislikda joylashgan... Shahar tuproq devor bilan o‘ralgan va chuqur handaq (qurshagan), darvozalari oldida esa osma ko‘priklar bor edi... Bu yerda uylar va masjidlar ko‘p. Ayniqsa, bittasining qurilishiga Temurbek buyruq bergan edi, ammo uning qurilishi bitmagan. Unda katta dahma bo‘lib, bu yerda uning otasi ko‘milgan…”[4]. Klavixo “Katta qabriston”, deb atagan ushbu me’moriy majmua keyinchalik xalq orasida Dor ut-tilovat degan nom bilan mashhur bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bek davrida Dor ut-tilovat me’moriy majmuasi bir qator inshootlar bilan to‘ldirilgan, majmuadagi bitmay qolgan binolarda qurilish ishlari davom ettirilgan. Xususan, Amir Temur davrida Shamsiddin Kulol qabri ustida marmar toshtaxta qoplangan mo‘jazgina maqbara bunyod etilgan bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek davrida ushbu maqbara ustida gumbazli inshoot barpo etilgan. Maqbara ro‘parasida avval madrasa bo‘lgan bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek davrida uning o‘rnida Ko‘k gumbaz masjidi bunyod etilgan. Mazkur masjid me’moriy majmuadagi eng katta inshoot bo‘lib, jome’ masjidi hisoblangan. Masjid peshtoqi ravog‘ida Shoxruh Mirzo hamda Mirzo Ulug‘bekning nomlari, ularning sharafiga bitilgan maqtovlar hamda masjidning qurib bitkazilgan yillari haqida ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Ko‘k gumbaz masjidining nomi uning tashqi me’moriy bezaklarida ishlatilgan moviy va ko‘k rangli koshinlar bilan bog‘liq. Peshtoq bezaklari ichida geometrik naqshlar ustunlik qiladi. Masjid peshtoqining o‘ng va chap tomondagi ustunlari hamda boloxonasi buzilib ketgan[9]. Ularda va asosiy ravoqda islimiy bezaklar ham ishlatilgan. Masjid xonaqohi 12,7×12,7 mni tashkil etgan bo‘lib, gumbaz va poygumbazining tashqi tarafiga ishlov berilgan sirkor me’moriy bezaklarida moviy, ko‘k va oq rangli epigrafik yozuvlar, xususan, Qur’on oyatlari bitilgan. Ichki qismidagi 8 ta mayda ravoqchalar romb shaklidagi qalqonsimon bag‘allar bilan o‘zaro birlashtirilgan bo‘lib, ravoq shaklidagi 16 ta tayanchga o‘rnatilgan. Xonaqohning g‘ishtin devorlari burchagidagi to‘rtta aylana zina orqali ayvon tomiga chiqilgan[11]. 1437–1438 yillarda Mirzo Ulug‘bek

tomonidan Shamsiddin Kulol maqbarasining janubiy devori ortida Temuriylar xonadoni a’zolari uchun yangi maqbara bunyod etilgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlab o‘tishicha, ushbu maqbaradagi XV–XVII asrlarga oid qabrtoshlar orasida Termiz shayxlarining nomlari ham uchraydi. Maqbaraning nomi shundan kelib chiqqan holda Gumbazi Sayyidon, deb ham atalgan[10]. Me’moriy majmua yodgorliklari, xususan, Ko‘k gumbaz masjidi 1970 yillarda hamda mustaqillik yillarida (1995–1996 yillar) Amir Temur hamda Mirzo Ulug‘bekning yubileylari munosabati bilan qayta ta’mirlangan. Hukumat qaroriga asosan, Ko‘k gumbaz masjidida 2016 yilda ham tiklash-ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan.

***Dor us-saodat me’moriy majmui*** ham Qashqadaryo vohasida joylashgan Temuriylar davri tarixiy obidasidir. U 1389–1400 yillarda barpo etilgan Hazrati Imom va Jahongir Mirzo (Amir Temurning katta o‘g‘li hamda valiahdi, 1386 yilda vafot etgan) maqbaralaridan tarkib topgan. Klavixo bu yodgorlik haqida o‘z esdaliklarida “...boshqa bir dahmani Temurbek o‘ziga atab qurishga buyruq bergan va u ham hali bitkazilmagan edi. Aytishlaricha, u bir oy ilgari bu yerga kelgan, dahmadan ko‘ngli to‘lmagan, (unga) kirish o‘rni pastligini aytgan va buzib qayta qurishga buyruq bergan... Bu masjidda, Temurbekning Yangir (Jahongir) ismli to‘ng‘ich o‘g‘li ham dafn etilgan. Mazkur masjid va dahma nihoyatda hashamatli va u oltin, lojuvard va rangin koshinlar bilan bezatilgan...”, deb yozib qoldirgan [4]. Me’moriy majmua tarkibiga, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ikkita maqbara, xonaqoh va bir nechta xizmat xonalari, hujralar kiradi. Majmuaning old tomonida chuqur ravoqli baland peshtoq mavjud. Shimoliy tarafda joylashgan Jahongir Mirzo maqbarasining o‘ziga xos o‘n olti qobirg‘ali kulohiy gumbazi konus shakliga ega. Bu Xorazm me’morchilik maktabiga xos an’analardan biri bo‘lib, uning qurilishida xorazmlik me’morlar ishtirok etganidan dalolat beradi. Maqbara va undan deyarli 40 m narida joylashgan yer osti sag‘anasi o‘z davrida hashamatli hamda ulkan Dor us-saodat majmuasining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan. 1392 yilda qurib bitkazilgan Jahongir Mirzo maqbarasi serjilo me’moriy naqshlar bilan bezatilgan. Murakkab kompozitsiyaga ega Dor us-saodat me’moriy majmuasi 70x50 m o‘lchamli yirik inshoot bo‘lib, asosiy g‘arbiy fasadining peshtoqi 20 metr. U orqali to‘rtburchak shakldagi (tarhi 20x20 m) markaziy zal – xonaqohga kiriladi. Uning burchaklarida yo‘laklar mavjud bo‘lib, yon xonalarga olib boradi. G‘arbiy va shimoliy fasad burchagida aylana shaklidagi minora (diametri 2,7 m) mavjud. Uning to‘rtdan uch qismi devordan tashqariga chiqib turadi. Jahongir Mirzo maqbarasiga Amir Temur tomonidan Hazrati Imom hoki ko‘chirib kelingan. Shu sabab Dor us-saodat majmuasi Hazrati Imom nomi bilan ham ataladi. Me’moriy majmua inshootlari ajoyib g‘ishtin koshinlar bilan girih uslubida bezatilgan. Girih uslubidagi bezaklar orasida Qur’on oyatlaridan iborat yozuvlar ham mavjud. Bu yodgorlik gumbazi asosan zangori va moviy sopol parchalari bilan bezatilgan. Yodgorlikning ichki bezaklari o‘ymakor marmar va ganch muqarnaslardan iborat. Mazkur me’moriy majmuada Jahongir maqbarasidan tashqari masjid ham bo‘lgan. Yodgorlik majmuida Amir Temur naslidan bo‘lgan amaldorlar hamda zamonasining ulug‘ zotlari dafn etilgan.

Amir Temur hukmronligi davrida Qashqadaryo vohasining yana bir qadimiy shahri *Qarshi* (Nasaf) ham mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Qarshi (Qadimgi Naxshab, Nasaf) shahrida Amir Temur va Temuriylar davrida ham mudofaa devoriga ega shahar qo‘rg‘oni, xususan, Qarshi vohasi hokimining saroyi, masjid, maqbara, xonqohlar bunyod etilgan. Bu davrda Qarshi hududida avvalgi davrlarda bunyod etilgan ko‘hna inshootlar qayta tiklanib, ta’mirlangan. Yozma manbalarda keltirilishicha, Naxshabda IV–V asrlarda bunyod etilgan yirik va mustahkam qal’a mavjud bo‘lib, shahar VII–VIII asrlardayoq vohaning poytaxt shahriga aylangan. IX–X asrlardan boshlab Nasaf gullab-yashnagan o‘rta asr shaharlaridan biri sifatida yodga olingan. O‘rta asrlarda Qarshi shahri Buxoro – Balx karvon yo‘lida joylashgan muhim mudofaa inshootlariga ega shahar bo‘lgan. Shaharda qal’a va rabot mavjud bo‘lib, to‘rtta darvozaga ega mudofaa devori bilan o‘rab olingan[3]. XIII asrda esa shaharni mo‘g‘ul bosqinchisi Chingizxon bosib olgach, unga o‘t qo‘yib, butunlay vayron etgan. Keyinchalik XIV asrda qadimgi Nasafdan 5 km shimolda hozirgi Qarshi shahri o‘rnida chig‘atoy urug‘idan bo‘lmish Kepekxon tomonidan saroy bunyod etilgan va yangi shaharga asos solingan. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida keltirilishicha, shaharning Qarshi deb shuhrat topganligining sababi ham Kepekxon qurdirgan inshoot bilan bog‘liq. Ushbu inshoot Nasaf va Narshaxdan ikki farsax masofada joylashgan qo‘rg‘ondir. Mo‘g‘illar qo‘rg‘onni “qarshi” deydilar[6]. Hofizi Abru ham o‘zining “Geografiya” asarida Kepekxon tomonidan yangi bunyod etilgan shaharda ko‘shk qurdirgani haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan[8].

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai baxrayn” va Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur” asarlarida ham Qarshi shahri atrofida mudofaa devori bunyod etilgani haqida ma’lumotlar yozib qoldirilgan[1]. Tadqiq etilayotgan davrda Qarshi shahri tuzilishi jihatidan O‘rta Osiyo shaharlariga xos tarzda uch qismdan iborat bo‘lgani, ya’ni u noto‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishidagi mudofaa devori, bitta saqlov darvozasi va ichki qo‘rg‘onga ega bo‘lgan mustahkam shahar bo‘lgan. Temuriylar davrida Buyuk ipak yo‘li chorrahalarida joylashgan Qarshi shahrida masjidlar, maqbaralar, karvonsaroylar, hammomlar, bozorlar va boshqa ko‘plab yo‘lbo‘yi inshootlari bunyod etilgan. Xususan, Qashqadaryo ustida qurilgan dastlabki ko‘prik ham Amir Temur davrida barpo etilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Shayboniylar davrida Qarshi yanada gullab yashnagan bo‘lib, bu davrda shaharda Abdullaxon (1583–1598) tomonidan yangi binolar – madrasa, masjid, karvonsaroylar, sardoba, hammomlar va gumbazli savdo inshooti – chorsu, bozorlar qurilgan. Shuningdek, Qashqadaryo ustidan o‘tgan eski ko‘prik buzib tashlanib, o‘rnida yanada mustahkamroq qurilmaga ega yangi ko‘prik bunyod etilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Amir Temur va Temuriylar davrida Qashqadaryo vohasi shaharlari, xususan, Kesh va Qarshi mo‘g‘ular bosqinidan keyingi tushkun holatidan Movarounnahrning yirik madaniy markazlari darajasiga ko‘tarilgan. Temuriy hukmdorlar ushbu shaharlarni rivojlantirish, ularda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratishgan. Bizgacha qisman bo‘lsa-da saqlanib qolgan hashamatli me’moriy obidalar: Oqsaroy, Dor-ut-tilovat va Dor-us-saodat me’moriy majmualari va boshqa yogorliklar fikrimizga dalil bo‘ladi.

Markaziy shaharlar mudofaa devorlari, shahar qo‘rg‘oni va boshqa mudofaa inshootlari qayta ta’mirlanib, mustahkamlangan. Shaharlar maydoni kengaytirilgan va yangi inshootlar bilan boyitilgan. Tarixiy manbalarda vohaning markaziy shaharlarida sarq me’morchiligining barcha turdagi namunalari: qal’a, saroy, jome’ masjidlari, mahalla masjidlari, katta va kichik madrasalar, minoralar, xonaqohlar, maqbara hamda ziyoratgohlar, da’vo va dam olish maskanlari (bog‘-rog‘, hammomlar, shifoxonalar)ning mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan ushbu shaharlarda savdo-madaniy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy inshootlar, xususan, shaharlar markazida Chorsu bozorlari, asosiy shoh ko‘chalari bo‘ylab ketgan savdo rastalari, do‘konlar,

ixtisoslashgan hunarmandchilik guzarlari, shaharlarda va yo'llar bo'ylab karvonsaroylar, sardobalar qurilishiga, yo'lovchilar hamda mahalliy aholini yil bo'yi ichimlik suvi bilan ta'minlab tiruvchi quduqlarni qazib berilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Umuman olganda, Qashqadaryo vohasi shaharlarida Amir Temur va Temuriylar davrida Sharq me'morchiligining tarixiy an'analari asosida bunyod etilgan me'moriy obidalarning saqlanib qolgan namunalari va ular haqida manbalarda keltirlgan tarixiy ma'lumotlar hukmdorlarning ona zaminiga bo'lgan e'tibori haqida tasavvur hosil qilish imkonini berishi bilan qimmatlidir. Ularni chuqur o'rganish va hatto ziyorat qilish yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiqlik hamda xalqimiz daholari tomonidan yaratilgan moddiy-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.



**ADABIYOTLAR**


1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. №5376. – 60, 551-варақлар.
2. Бобур. З.М. Бобурнома. – Тошкент, 1989.
3. Бертгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля. // Труды САГУ. Вып. CXI. – Ташкент, 1957.
4. Клавихо Р.Г. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406 йиллар) / Таржимон О. Тоғаев. Масъул муҳаррир Муҳаммад Али. – Тошкент, 2010.
5. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX–начало XIII вв. – Ташкент, 1996.
6. Махмуд ибн Вали «Бахр ал-асрор фи мунокиб ул-ахёр» / Перев. Б.Ахмедова. – Ташкент, 1977.
7. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома / Сўзбоши табдил, изоҳлар ва кўрсатичлар муаллифлари А.Аҳмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент, 1997.
8. Ҳофизи Абру. География. /Форс тилидан таржима О.Бўриевники. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Тошкент, 1997. – 170б варақ.
9. ЎзМА Р-2406-фонд, 1-рўйхат, 284-иш, 8 варақ.
10. ЎзМА Р-2406-фонд, 1-рўйхат, 1526-иш, 20-варақ.
11. Маньковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. – Ташкент, 1971.
12. Қадимги Кеш – Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. – Тошкент, 1998.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/4]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 355.232.6

***Pirnafas XOLIQULOV,***
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*
*E-mail: azamat.eralov.95@mail.ru*

*QarMII professori, t.f.d Y.Ergasheva taqrizi asosida*

# O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O‘QITISH BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqillik, tarix, O‘zbekistonning eng yangi tarixi, demokratik islohotlar.

## ПРЕПОДАВАНИЕ НОВЕЙШЕЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА – СЛОЖНАЯ ПРОБЛЕМА СЕГОДНЯ

Аннотация

В данной статье говорится о том, что преподавание новейшей истории Узбекистана является сегодня актуальной проблемой. На основе научных данных автор на основе существующей литературы изучил и проанализировал особенности преподавания новейшей истории Узбекистана как актуальной проблемы.

**Ключевые слова**: независимость, история, новейшая история Узбекистана, демократические реформы.

## TEACHING THE NEWEST HISTORY OF UZBEKISTAN IS TODAY'S CHALLENGING PROBLEM

Annotation

This article talks about the fact that teaching the newest history of Uzbekistan is an urgent issue today. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of teaching the latest history of Uzbekistan as a current issue based on existing literature.

**Key words**: independence, history, the latest history of Uzbekistan, democratic reforms.

**Kirish**. Tarix insonlar bugungi va kelajak hayoti haqida mushohada qilishga undaydigan buyuk ustoz. Tarix va tarixiy bilimlarni egallagan insonlar o‘tmishda ajdodlari bosib o‘tgan hayot yo‘llari, erishgan yutuqlari, mag‘lubiyatga sabab bo‘lgan tarixiy xatolaridan bugungi va kelajak hayoti uchun xulosa qilishga undaydi.

Tarix fani o‘tmishda bo‘lib o‘tgan jarayonlarni o‘rganishni ma’lum bir davrlarga bo‘lib o‘rganishi hammaga ma’lum. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan mana shunday davrlardan biri O‘zbekiston tarixida, O‘zbekistonning eng yangi tarixi davridir. O‘zbekistonning eng yangi tarixi davri ramziy ma’noda 2017 yilda yurtimizda bo‘lib o‘tgan siyosiy yangilanishlar, o‘zgarishlar bilan boshlanib hozirgi kungacha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishni bilib olishimiz muhim. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 2017-2021 yillar davomida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohalarida demokratik islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga yo‘naltirilgan 2022 yil 28 yanvarda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni muhim ahamiyatga ega [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘z ichiga 100 ta maqsadni qo‘ydi. Bu maqsadlarni amalga oshirish quydagi yettida ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar asosida olib boradi.

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu qonun hujjatlari da belgilangan maqsad va vazifalarni oliy o‘quv yurtida ta’lim olayotgan talabalarga yetkazish, tushuntirish ishlarini O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani amalaga oshiradi.

Yoshlarda tarixiy bilim, tarixiy tafakkurni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan tarixiy manbalar, tarixiy qo‘lyozma asarlar, arxeologik topilmalar, madaniy obidalarni o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan geosiyosiy kurashlarda tarixiy bilimsizlikning jamiyat uchun salbiy

oqibatlari juddayam og‘riqli. Tarixiy jarayonlarda ajdodlari tomonidan yo‘l qo‘ygan qo‘pol xatolarni anglamaslik yoki bilmaslik, umuman tarixiy bilimsizlik oqibatida bugungi hayotimizda ham ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan, xato qarorlar qabul qilish kelajak avlod oldidagi eng katta kechirilmas xato ish.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani o‘rgatishda dunyoning rivojlangan davlatlarining ta’lim tizimidagi tajribasini o‘rganib amaliyotga joriy etish samarali natijaga erishishmizga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, bizda, afsuski, O‘zbekistonning eng yangi tarixi turli aspektlarini o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislarning (tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar, faylasuflar, iqtisodchi olimlar, huquqshunoslar) tarqoqligi, ular faoliyatini muvofiqlashtirish talab darajasida emasligi yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Bugun ilmiy gumanitar hamjamiyat vakillarining hamkorligisiz va birgalikda sarflanadigan kuch-g‘ayratisiz hozirgi zamon tarixining mazmunini tushunish murakkabligi barchaga ayon.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog‘onaga ko‘tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir[3].

Mazkur qarorda belgilanganidek, institut va kengash a’zolari qator rejalar, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masalalarga jiddiy kirishgan. Unda siyosat, iqtisod, madaniyat, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sodir bo‘layotgan voqealar asosida O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish bo‘yicha kompleks yondashuvni ta’minlash inobatga olingan. Ushbu vazifalarning ilmiy idrok etilishi va hal qilinishi muayyan darajada tarix fani mavjud tushuncha-metodologik arsenalining tanqidiy tahlili va tegishli tarzda O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid turli voqealarni tadqiq etish bilan shug‘ullanayotgan barcha ilmiy yo‘nalishlarning nazariy salohiyati yangilanishi bilan bog‘liqdir[4].

**Tahlil va natijalar.** Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatda eski davrga xos bo‘lgan ijtimoiy ongning retsidivlari muayyan darajada saqlanib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu holatni nazarda tutgan holda O‘zbekistondagi siyosiy partiyalarni jiddiy tanqid ostiga olib, quyidagilarni ta’kidladi: “Ochiq aytish kerak, siyosiy partiyalarda bu sohada haligacha xotirjamlik, qandaydir mudrab o‘tirish kayfiyati hukm surmoqda. Hech kimga foydasi bo‘lmagan majlislar soatlab davom etmoqda, tanqidiy tahlil o‘rniga mayda masalalar bilan o‘ralashib, dolzarb muammolarning yechimi chetda qolib ketmoqda”[5]. Bugun kuchli fuqarolik jamiyatini qurish vazifasi tobora ko‘proq dolzarblik kasb etmoqda. Uning amalga oshirilishi real va faol ko‘p partiyali tizimni shakllantirishni talab etayotir.

- Hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar, media sohasi ancha rivojlandi. Media sohasining yutuqlarini hisobga olgan holda eng yangi O‘zbekiston tarixi fanining har bir mavzusi bo‘yicha xujjatli filmlar, video darslarni yaratib butun jamoatchilikga taqdim etish kerak. Media sohasi bo‘yicha qilingan ishlar orqali O‘zbekistonning eng yangi tarixi faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishimiz mumkin.
- Oliy o‘quv yurtlarda o‘tilayotgan O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining mavzular mohiyatini ochib berishga hizmat qiladigan manbalarni statistik tahliliy ma’lumotlarni tizimlashtirib chiqish kerak. Bundan tashqari davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun hujjatlarning mazmun mohiyati haqidagi yangiliklarni o‘quv fani dasturlarini yangilab borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish orqali biz nimalarga erishishimiz mumkin degan savolni qo‘yib unga quydagicha javob berishimiz mumkin:
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish orqali biz bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lish;
- islohotlarning mazmun mohiyatini to‘liq anglash;
- talabalarning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimi, ko‘nikma va malakasini oshirish;
- davlat islohotlariga daxldor bo‘lish;
- dunyoda bo‘layotgan geosiyosiy jarayonlarni tahlil qila olish kasbiy ko‘nikma va malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Tarix – hozir va o‘tmish, kecha va bugun, o‘tgan zamon va kelajak haqidagi fan. Uning fan sifatida yaratilishi va o‘qitilishi qadimgi ming yilliklarga borib taqaladi. Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha rivojlangan va rivojlanayotgan davatlarning barchasidagi maktablarda ta’lim-tarbiya va yoshlarga zamon ruhida bilim berish dolzarb hisoblanadi. Mazkur sharafli ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘z o‘tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo‘ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O‘tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to‘g‘ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, O‘zbekiston tarixini o‘rganish talabalarda xalqimizning o‘tmishi, hozirgi zamon va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi.

## ADABIYOTLAR


